

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**UMUMIY PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

**“Himoya qilishga ruxsat beraman”  
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi  
fakulteti dekani**

\_\_\_\_\_ dots. Rabbimov M.  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 y.

**5111700 –Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi yo'nalishi bo'yicha bakalavr  
darajasini olish uchun**

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida psixologik iqlimning ijtimoiy psixologik  
tavsifnomasi** mavzusida bajarilgan

---

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajaruvchi: **Qo'shboqova Gulginoy**\_\_\_\_\_

Ilmiy rahbar: **Katta o'qituvchi T. Mamatqulov**

Ishni himoyaga tavsiya etaman **dots. Yo.R. Alimqulov**  
(ilmiy rahbar ismi va sharifi)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**BMI Umumiy psixologiya kafedra yig'ilishining qarori  
bilan (Qaror № \_\_\_\_\_ y) himoyaga tavsiya etilgan.**

Kafedra mudiri:  
**Dots. Yo.R. Alimqulov**  
(Ismi, va sharifi)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Jizzax - 2012**

**MUNDARIJA**

|                     |          |
|---------------------|----------|
| <b>KIRISH .....</b> | <b>3</b> |
|---------------------|----------|

|                                                                                                                                   |          |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|
| <b>I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY PSIXOLOGIIYANI TADQIQ QILISHNING NAZARIIY METODOLOGIK MUAMMOLARI.....</b> | <b>7</b> |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|

|                                                                                                       |          |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|
| <b>1.1. Boshlang'ich sinfl o'quvchilariga ijtimoiy psixologiya fanini o'qitishning mohiyati .....</b> | <b>7</b> |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|

|                                                                                                                                     |           |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>1.2. Boshlang'ich sinfl o'quvchilariga ijtimoiy psixologiya fanini o'qitish oraqli bilish jarayonlarini rivojlantirish.. ...</b> | <b>25</b> |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|

|                                                                                                             |           |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>II BOB. YOSHLAR IJTIMOIIY PSIXOLOGIIYASI VUJADGA KELISHI VA SHAKLLANISHNING ASOSIIY OMILLARI.. .....</b> | <b>38</b> |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|

|                                                                                                                          |           |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>2.1. Boshlang'ich sinfl o'quvchilari ijtimoiy psixologiyasi shakllantirishning iqtisodiy va ma'naviy asoslari ...</b> | <b>38</b> |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|

|                                                                                                                                   |           |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>2.2. Ijtimoiy psixologiyani o'rganish orqali boshlang'ich sinfl o'quvchilarida axloqiy tushunchalarni shakllantirish. ....</b> | <b>45</b> |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|

|                               |           |
|-------------------------------|-----------|
| <b>UMUMIIY XULOSALAR.....</b> | <b>54</b> |
|-------------------------------|-----------|

|                                                 |           |
|-------------------------------------------------|-----------|
| <b>FOYDALANILGAN ADABIIYOTLAR RO`YXATI.....</b> | <b>56</b> |
|-------------------------------------------------|-----------|

## **KIRISH**

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgan, siyosiy, iqtisodiy, manaviy-marifiy sohalarida juda katta o'zgarishlar, yangilanishlar yuz berdi. Istiqlool tufayli rivojlanib borayotgan respublikamiz psixologiya fani oldida ham qilinishi lozim bo'lgan bir qancha muhim vazifa va muammolar paydo bo'ldi. Ana shulardan biri o'sib borayotgan yosh avlodni faol ijtimoiy shaxslar qilib tarbiyalash, boshqaruv idoralari, xalq xo'jaligi, talim va madaniyatning barcha sohaları uchun yetuk, manaviy jihatdan barkamol mutaxassilar tayyorlash, boshqaruv, xalq millat taqdiri hamda istiqbolini belgilash kabi muammolarni yechishning amaliy yo'llari va ilmiy asoslarini yaratishda buyuk ajdodlarimiz, sharq mutafakkirlari, pedagog va psixologlarning ijodiy faoliyatlarini chuqur o'rganib, ular ilgari surgan pedagogik-psixologik tadqiqotlarni ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar mohiyati, mazmuni, ta'limotlarini ijtimoiy turmushga tadbiq yetish vazifasini kiritish mumkin.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida rivojlanishning izchil yo'lga tushib olishi, jahon intellektual salohiyatida to'la raqobatbardosh bo'la olishi inson faoliyatining hamma sohalarida zamonaviy psixologik bilimlarni qo'llay olish darajasiga bog'liq. Bu esa ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarida samaradorlikka erishish shaxs psixologiyasini bilmaslik va psixologik bilimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan habardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yollari va choralari" asarida O'zbekistonda qilingan o'ziga xos islohat modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan.<sup>1</sup> Buni ta'minlash bo'lajak mutahassislarni va ilmiy-pedagog xodimlarni zamonaviy

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yollari va choralari" Toshkent – 2009 y

talablar asosida tarbiyalashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yollaridan biri bo'lajak mutahasislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullanadigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammoni yechimini ham Muhtaram Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan ongli yashaydigan komil inson qilib voyaga yetkazish – talim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim", deb ta'kidlaydi.<sup>2</sup>

Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbiy tayyorgarligini oshirishda o'quvchilar shaxsini va psixologik qonuniyatlarini hamda ta'lim-tarbiya jarayonida ularni rivojlantirish, bilim, ko'nikma va malakalar haqida tasavvurlarni shakllantirish ushbu mavzuni dolzarbligini yanada oshiradi.

O'quvchilarni maktabdagi ta'limga tayyorlash, pedagogik ta'sirlarga emotsional ta'sirlanishning xarakteri, xis-tuyg'ularini rivojlanishi, axloqiy, aqliy, estetik xis-tuyg'ularning chuqurligi va barqarorligi hamda o'quvchining emotsional qo'zg'aluvchanlik darajasini bilish bugungi kundagi dolzarb masalardan biriga aylangan.

Inson omili bilan bog'liq ta'lim to'g'risidagi qonun va milliy dasturining barcha muhim vazifalarini hal qilishda psixologiya fanini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ijtimoiy psixologiyani o'rganish ularning psixologik holatlarini hisobga olish va o'quvchilar emotsiyalarini to'g'ri tarbiyalash ta'lim faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish kafolatini keltirib chiqaradi. Shu sababdan o'quvchilarning bilish jarayonlarini faoliyatidagi ahamiyatini takidlagan holda ta'lim jarayonida ularning psixik xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Chunki psixologik holatda voqea hodisalarni analiz sintez qilish va o'quvchilardagi hissiy holatlar bilish jarayonidagi faoliyatni amalgam oshirishda o'quvchilarni ta'limga tayyorlash katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarni maktabdagi ta'limga tayyorlash o'quvchilarning ayni vaqtdagi bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

---

<sup>2</sup> .A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent – 2008 y

### **Malakaviy bitiruv ishining maqsadi;**

Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik aqliy rivojlanishini birgalikda boshlang'ich sinf o'quvchilarini shaxsini shakllantirish hamda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsining individual xususiyatlari va ularga ijtimoiy psixologik iqlimni diagnostika qilish yo'llarini maqsad, vazifalarini o'rganish bo'lib, quyidagi fikrlarni o'z ichiga oladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsining individual xususiyatlari va ularni diagnostika qilish yo'llarini aniqlashga qaratilgan. Pyedagogika jarayonning mahsuldorligi pyedagogning o'z tarbiyachilarini yaxshi bilishga, talim va tarbiyaning xilma-xil myetodlarini qo'llashga bog'liq.

Boshlang'ich sinif o'quvchilarini psixik xususiyatlarini o'rganish, ularni maktabdagi ta'limga tayyorlash psixologik xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishdir. Bitiruv malakaviy ishi jarayonida umumiy maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo'yiladi.

- 1.Mavzuning ilmiy-amaliylikini umumiy tahlil qilish.
- 2.Boshlang'ich sinif o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini nazariy jihatdan yoritish.
- 3.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilish jarayonlarini ta'lim – tarbiyadagi o'rnini tahlil qilish.
- 4.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni psixologik xususiyatlarini ta'lim-tarbiyadagi o'rnini tahlil qilish.
- 5.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilish jarayonlarini rivojlantirish yo'llari va usullarini pyedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilish.
- 6.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda psixik xususiyatlarini aniqlash yo'llari va usullarini pyedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilish.
- 7.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsining individual xususiyatlari va ularni diagnostika qilish yo'llari.

### **Malakaviy bitiruv ishining predmeti:**

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsining individual xususiyatlari va ularni diagnostika qilish yo'llariga ijtimoiy psixologik mehanizmlarini nazariy

asoslarini yoritib berish.

### **Malakaviy bitiruv ishining ilmiy ahamiyati:**

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni ta'limda bilish jarayonlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini psixologiya fanida o'rganilganligiga qaramasdan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsining individual xususiyatlari va ularni diagnostika qilish yo'llari yosh bosqichidagi xususiyatlari va ijtimoiy psixologiya yetarlicha o'rganilmagan.

a jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishning psixologik mexanizmlarini o'rganish bu sohadagi ilmiy ta'limotlarni ma'lum darajada to'ldiradi.

### **Malakaviy bitiruv ishining amaliy ahamiyati:**

Malakaviy bitiruv ishi materiallari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quvchilarni bilish jarayonlarini rivojlantirish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsining individual xususiyatlari va ularni diagnostika qilish yo'llari bo'yicha uslubiy ta'vsiya bo'lib xizmat qilishi mumkun.

### **Malakaviy bitiruv ishining myetodalogik asoslari:**

Ilmiy tadqiqot ishida asosan I.P.Pavlov, L.S.Vigotskiy, A.N.Lyeontyev, A.R.Luriya, A.V.Zaporozhets F.N.Gonobolin, D.B.Elkonin, V.S.Muxina o'zbek psixologlaridan M.G Davlatshin, E.G`ozdiyev, M.Voxidov, B.Karimova, S.To'ychiyeva, Z.Nishonova M.Mavlonov Sh.T.Tulyaganova, S.Aytmyetova, M.Maxsudova F.Akramova kabi olimlarning ilmiy fikrlaridan va kitoblari foydalanildi.

### **Malakaviy bitiruv ishining umumiy ma'zmuni:**

Bitiruv malakaviy ishi 2-bob 5 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I-BOB. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY**

## **PSIXOLOGIYA NI TADQIQ QILISHNING NAZARIY METODOLOGIK MUAMMOLARI.**

### **1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ijtimoiy psixologiya fanini o'qitishning mohiyati.**

Yoshlar ijtimoiy psixologiyasining mohiyati va o'ziga xosligini boshlang'ich nuqta sifatida o'rganish uchun, eng avvalo, voqyelik in'ikosining psixik shakli yuzaga kelishi hamda rivojlanishi qonuniyatlarini hisobga olish darkor. O'zbekisoan Prezidenti I.A. Karimov mustaqil davlat qurishning maqsad va vazifalarini belgilab, respublikamizda buyuk kelajakni barpo etishda madaniy va tarixiy merosning yuksak marralarini, xalqning gumanistik an'analarini egallagan shaxs asosiy tayanch bo'lishini alohida ta'kidlagandi. Siyosiy va iqtisodiy islohotlarning oldingi marralariga aynan shaxslar chiqariladi, davlatimizning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy makonini isloh qilish aynan shu narsaga yo'naltirilgan.

Kishilar haqida fikr yuritganimizda ko'pincha shaxs evolyusiyasini, xarakteri xususiyatlarining, manfaatlarining, ehtiyojlarining, qiziqishlarining, faoliyat turi va turmush tarzining o'zgarishini aniqlashga harakat kilamiz.

Bu o'zgarishlar doim ham ijobiy bo'lavermaydi, albatta. Bular ko'pincha shaxsning inkirozidan, buzilishidan, jamiyatga qarshi maqsadlar hamda xulq-atvor shakllari paydo bo'layotganidan dalolat beradi. Shuning uchun insonning o'zgarishi omillari hamda mexanizmlarini aniklash muxim ilmiy va ijtimoiy muammodir. Shu bois ko'p tadqiqotchilarning e'tibori shaxsning tarkibiy komponentlarini aniklashga qaratiladi. Bu yo'nalishda uning ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik modellari konstruksiyasini yaratishga yondashuvlar turlicha bo'ldi.

Bunday tadqiqot zarur va tabiiydir, chunki u shaxsni yaxlit bir butunlik sifatida tasavvur etish, turli yordamchi tuzilmalarning nisbatini, ularning o'zaro aloqasini, mazmunan to'liqligini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari shaxs

nazariyasining tizimlitarkibli varianti uning real konkrettarixiy va individualbiografik jihatdan amal qilishi hamda rivojlanishi qonunlarini tushunish uchun zarur. Biroq tarkibiy yondoshuv mohiyatan shaxsning statikadagi tavsifini berib, uni sxemaga soladi, dag'allashtiradi, xossalar, sifatlar, salohiyatlarning qandaydir to'plamiga aylantiradi. Shuning uchun murakkab dinamik tizim sifatida shaxsni tarixiygenetik metod nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish zarur, chunki inson biologiklik va ijtimoiylikning birligidan iborat.

Hozirgi zamon fani va amaliyoti ma'lumotlari, fikrimizcha, hayvonlar psixikasi, inson ongi va jamiyatning kundalik hamda ilmiy darajasi, psixikasi, genezisi, fanda, inson psixikasining hayvon psixikasidan asosiy farqlari bugungi kun nuqtai nazaridan to'g'riligini ta'kidlaydi.

Umuman, antropogenez nazariyasiga ko'ra, ideal hodisa bo'lgan psixikaning insonning tabiiy evolyusiyasi sifatida shakllanishi hayot shakllarining murakkablashib, o'zaro bog'liq o'tish sifatida soddaroq biologik tizimlardan nisbatan murakkablariga tomon rivojlanishi, vorislik prinsipi bo'yicha sifat jihatidan yangi elementlarning tarkib topishi va tegishli ravishda jonli tizimlarning atrofmuhit bilan o'zaro munosabati shakllari murakkablashuviga bog'liq.

Ijtimoiy bashoratni va shu asosda o'z xatti-harakatini rejalashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan tarzda voqyelikni anglash inson psixikasining xususiyatidir. Bundan tashqari, insonning hamda jamiyatning tegishlicha, voqyelikni ideal obrazlarda in'ikos ettirishning oliy shakli bo'lgan inson ongining shakllanishi jarayonida psixika rivojlanishining oliy shakliga o'tish psixika organlari, birinchi navbatda, miyaning sifat jihatdan tubdan qayta qurilishi bilan bog'liq. Insonda nerv faoliyati mexanizmlari ikkinchi signal sistemasi - voqyelik haqida so'z, gap orqali darak berish bilan to'ldirilgan. Bu jihatdan olganda, inson shaxs sifatida ijtimoiy, tarixiy rivojlanish mahsulidir.

Yoshlar ijtimoiy psixikasi mohiyati hamda o'ziga xosligining dastlabki ijtimoiyfalsafiy tahlili, eng avvalo, voqyelikni in'ikos ettirishning psixik shakli yuzaga kelishi hamda rivojlanishi qonuniyatini hisobga olishni talab qiladi. Uni o'rganish ushbu muammoga faoliyatli yondashuv hisoblanadi. Hozirgi falsafiy

adabiyotlarda «faoliyat» kategoriyasi tobora katta ahamiyat kasb etib, sosiologiya, psixologiya, etika, estetika, pedagogika singari sohalarni, shuningdek, ergonomika, mehnatni ilmiy tashqil qilish, fan va muhandislik faoliyati metodikasi hamda boshqa sohalarni o'z ichiga oluvchi tadqiqotlarda foydalaniladi. Inson faoliyati, pirovard natijada, materiyaning avvalgi barcha shakllarining faolligini o'zida jamlaydi. Inson faolligi tufayli o'tmish avlodlardan madaniyatni, bilimlarni, tafakkurning kategorial qurilishini meros qilib oladi.

Bu tushuncha amalda bilimning insonni, uning ongini, bilish faoliyatini va bir qator xrlarda professional faoliyatini tadqiq qilish bilan bog'liq barcha sohaslarini qamrab oldi. Ergonomika, prakseologiya, mehnatni ilmiy tashqil qilish inson faoliyatini tadqiq qilib, uni oqilona tashqil qilish prinsiplarini, samaradorligini oshirish usullarini izlaydi. Bilish nazariyasida «faoliyat» kategoriyasi bilish faoliyatining kelib chiqishi, tuzilishi va amal qilishining asosiy masalalarini hal etish imkonini beradi. Sosioantropogenez bilan shug'ullanuvchi bilim sohalari «faoliyat» tushunchasi asosida insoniyat jamiyati qaror topishining prinsipial va eng muhim omillarini aniklashga intiladi. Shuning uchun ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlari muammosini xal qilish tarixiy qonuniyat bilan kishilarning ongli faoliyati nisbati to'g'risidagi masalani muqarrar ravishda qo'yadi, psixologiyada esa «faoliyat» tushunchasi ong, shaxs va insoniy xulq-atvor borasidagi izchil konsepsiyani yaratish imkonini beradi.

Faoliyatning predmetli xususiyati uning biron-bir predmetga yo'naltirilganligida, predmetni egallashga, uning xossasini o'zgartirishga intilishda va shu kabilardagina ifodalanib qolmaydi. Subyektning faolligi mohiyati subyektlar xatti-harakatiga qo'shilgan predmetlarning o'zaro ta'siri hisobiga faoliyat natijasi qo'lga kiritilishidan iborat bo'lgan sifat jihatidan yangi mazmun shakllanishiga ko'ra predmetli bo'ladi.

Kishi predmetga predmet bilan ta'sir ko'rsatadi, maqsadga erishishning bu usuli hayvonning qurolli faolligi inson faoliyatiga aylanishining asosiy shartini belgilab beradi. Bunda uning faoliyat akti hayvonlar xatti-harakat aktidan farqli o'laroq, tashqi muhitning vaziyat bilan bog'liq omillari bilan bevosita bog'liq

emas. Bu vaqt makon va zamonda turlicha joylashishi mumkin, ya'ni «hayvon jismoniy ehtiyojidan kelib chiqib harakatlanadi; inson esa, bunday ehtiyojdan qoli bo'lganida, chinakam insoniy ish ko'radi; inson murakkab tarzda harakat qilishga qodir». Inson xatti-harakatining tabiiy muxit holatidan nisbiy mustaqilligiga uning o'z faoliyatini amalga oshirishni ta'minlovchi sun'iy muxit yaratishi xisobiga erishiladi. Bunda tabiiy muhitdagi ov, baliq ovlash, meva terish, dalaga ishlov berish kabi va amalga oshirilishi tabiat injikliklariga bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat shakllari saqlanib qoladi. Biroq faollikning bu shakllari predmetli tuzilmalar yaratilishiga tayanadi hamda maqsadli xususiyatga ega bo'ladi. Sun'iy muxitni yaratish amaliyotning predmetli faollik aktlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan obyektiv (predmetli) tuzilmalaridan boshlanadi. Bu strukturalarda predmetlarning o'zaro ta'siri amaliy ishning talab kilinayotgan natijani ta'minlovchi markaziy bo'g'iniga aylanadi. Shu munosabat bilan, faoliyatning predmetli xususiyati biron-bir quroldan foydalanishda emas, balki ishning predmetli tuzilmalarini tanlash, takomillashtirish hamda maqsadli tashqil qilishdadir.

Inson faoliyatining mazkur tuzilmalardan foydalanishga tayanuvchi faollik shakllarining qaror topishi subyektning xatti-harakatini boshqarish jarayenlarini qayta qurish bilan kechadi. Faollikning ichki mazmunining o'zgarishi subyekt psixikasida «ish - natija»ning o'zaro bog'liqligini qayd etish bilan boshlanadi. Bu aloqadan foydalanish tabiatga faoliyatli munosabatning sun'iy shakllarini mustaxkamlash vositasi hisoblanadi, uni boshqarish vaziyatga bog'liq bo'lmay qoladi.

Tashqi muxit belgilab beradigan hayvonlar xatti-harakatidan farqli ravishda, inson faoliyati «tashkaridan» emas, «ichdan» rag'batlantiriladi. Faoliyat maqsadi sifatida anglanadigan ichki rag'bat harakatni rag'batlantiradi.

Kishilarning yoshi, aloxdda fazalarning uzunligi genetik belgilangan o'zgarmas narsa emas - ularda ham biopsixologik, ham ijtimoiy qonuniyatlar namoyon bo'ladi. Shuning uchun kishining yoshiga neytral omil, yashab o'tilgan umr ko'rsatkichi sifatida qarab bo'lmaydi. U shaxsning rivojlanish jarayoni

dinamikasini tadqiq qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy xususiyatlar, ehtiyojlar va manfaatlar, maqsadlar va hayotiy rejalar, faoliyat natijalari hamda istiqbol har bir avvalgi yosh bosqichida tayyorlanadi, hayotning ma'lum bir davrida avj oladi va namoyon bo'ladi hamda kelajakka nazarni o'zida ifodalaydi. Shuning uchun shaxsni, shu jumladan, yoshlarni butun hayotiy sikl bilan birlikda o'rganish lozim.

O'rganishning ushbu usuli inson rivojlanishidagi boshqacha yondashuvda soyada qoladigan tendensiyalarni qayd etish imkonini beradi. Shaxsning yosh fazalari va hayotning haqiqiy biografik bosqichlari bilan mutanosiblashtirilgan evolyusiyasi qonuniyatlarini anikdashga hamda tasavvur etishga intilish doimo psixologlar, sosiologlar, pedagoglar, antropologlar, etnograflar va gumanitar fanlarning boshqa vakillari e'tiborini tortib kelgan. Ular orasidan shaxsning genetik nazariyasiga asos solgan P. Janetni, hayotiy sikllarning har xil tiplarini tadqiq qilgan Sh. Byullerni ajratib ko'rsatish mumkin. Ular tomonidan o'ziga xos qonuniyat aniklangan bo'lib, unda professional o'zini belgilash ibtidosi, qobiliyat, iste'dod va talantlarni ro'yobga chiqarish fakta muxim urin tutadi. Kishi garchi eng ko'p muvaffakiyatga yetuk yoshida erishsada, bunga tayyorgarlik ancha avval, yoshlikdan boshlanadi.

Har bir hayotiy bosqich shaxsning qaror topishida o'ziga xos «davr»ni tashqil etadi, inson rivojlanishining natijalarini ham, maqsadini ham, istiqbolini ham o'z ichiga oladi. Nima bo'lganini tushunish uchun nima yuz berganini aniqlash, yangicha qiziqishlar, mayllar, xarakter xususiyatlari, turmush tarzi va xulq-atvor uslubi paydo bo'lganini belgilab bergan asosiy, eng muhim, burilish nuktalarini kuzatish lozim.

Muammoni tadqiq qilishning psixologik va ijtimoiy yo'nalganligi yoshlarni tarbiyalashning amaliy negizini tashqil qiladi. U shaxsda jamiyat uchun muhim bo'lgan, jamiyat rivojlanishining ilg'or yo'nalishini ifodalaydigan belgixususiyatlarni, ehtiyojlar hamda manfaatlarni real shakllantirib, uning harakatining muhim istiqbolini yaratish imkonini beradi. Bu jihatdan Karaganda shaxsni gumanistik tarbiyalash, o'sib kelayotgan avlodda gumanistik ongni

shakllantirishni tadqiq qilish yo'nalishi istiqbolli hisoblanadi: «gumanistik ong gumanizm tamoyillarining amadda ifodalanishini, gumanizmni kundalik ijtimoiy amaliyot sohasiga o'tkazishni taqozo etadi. Bunda gumanizm g'oyalari pragmatik xususiyatga ega bo'ladi, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimini, barcha sohalarini, barcha fanlarni, madaniyatni, ta'limni, tibbiyotni, texnikani, texnologiyani gumanizasiyalash bilan uzviy qo'shilib ketadi».

Kishi yoshi uning ijtimoiy funksiyalari bilan bog'langanligi g'oyasi psixologiya faniga chuqur kirib bordi. U inson hayotini ijtimoiy davrlashtirishga asos bo'ldi: har bir yosh davrida faoliyatning ustuvor turlarini ajratish, so'ngra ular asosida inson ijtimoiy evolyusiyasi jarayonini ko'rsatishga harakat qilindi. Hayotiy sikl nazariyalari e'tiborni turli bosqichlarga xos bo'lgan faoliyatning eng muhim turlariga va ong shakllariga qaratadi. Masalan, Qadimgi Xitoyda qo'llangan davrlashtirish ma'lum. Unga ko'ra, inson hayoti har birining aniq belgilangan funksiyasi bo'lgan bosqichlarga bo'linadi. Bolalik va ilk yoshlikda asosiy mashg'ulot turi o'yin hamda ta'lim olish bilan bog'liq bo'lsa, 20-30 yoshlik davr o'z xatokamchiliklarini anglash, orttirilgan tajribaga asoslangan qarashlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqish va o'zicha tahlil qilish, 50-60 yoshlik davr esa ijodiy faoliyatning so'nggi davri sifatida belgilangan. Umr davomiyligining qulay ijtimoiy sharoit ta'sirida bo'ladigan uzayishi ayrim davrlarning yosh chegaralari birmuncha o'zgarishiga olib keladi. Bundan tashkari, kuzatilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, shuningdek, akselerasiya shaxsning nafaqat jismoniy, balki psixologik hamda ijtimoiy rivojlanishining jadallashuvini keltirib chiqaradi. Ommaviy kommunikasiya vositalari rivojlanishi, maktabgacha tarbiya va maktab ta'limi tizimi kompyuterlashtirilishi bilan endi bolalikda ancha katta hajmdagi axborot o'zlashtirilayotganligi, bilish xamda o'zligini bilish doirasi kengayib borayotgani, bu yoshda bajarish mumkin bo'lgan faoliyat turlari soni ortib borayotgani ma'lum. Jadal rivojlanish sur'ati keyingi yillarda ham saklanib qoladi. Mehnat, bilish va muloqot obyekti bo'lgan shaxs salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar ochib beruvchi, uzoq davom etadigan ilk yoshlik hamda yoshlik davrini ham bunga qo'shimcha qilish mumkin.

Bolalik va ilk yoshlikdagi rivojlanish xususiyatlarini taxlil qilishda rivojlanish vaqgining davomiyligini hamda har bir bosqichning ijtimoiy jihatdan to'liqligini ko'rsatuvchi sur'at, marom singari ko'rsatkichlarni e'tiborga olish darkor. Hozirgi zamon kishisi, ayniqsa, qulay ijtimoiy sharoitda, avvalgi tarixiy davrlardagi shaxsga nisbatan tezroq rivojlanadi. Uning ilk yoshlik davri jinsiy yetilishdan keyin xam o'sish xamda rivojlanish holatida davom etadi.

Bular shaxsning ijtimoiy rivojlanishi jarayonida ilk yoshlik va yoshlik davrlari muximligidan dalolat beradi. Yoshlik davrining murakkabligi o'smirlik davrinikidan kam emas. U yangi tajribalarga boy, jo'shqin va ziddiyatli davrdir. Yoshlik hayotning keyingi davrlari «tasvirini» o'ziga jo qiladi. Insonning kelajagi shu davrda yaratilgan kasbiy mehnat, siyosiy, axloqiy estetik zaminga bog'liq bo'ladi. Bunda uzluksiz ta'lim jarayoni shaxs rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. J.T. Tulenov ta'kidlaganidek, uzluksiz ta'lim «bilim olish butun umr bo'yi davom etishi; umr mazmunining doimiy yangilanib borishi; hayotga tayyorlanish bilan hayotning birligi; ta'limdagi revolyusion o'zgarishlar uzluksizlik xususiyatiga egaligi; ta'limning o'z bilimini oshirishga aylanishi va shu kabilari singari muxim tavsiflarni o'z ichiga oladi».

Yosh inson ongi moslashuvchan, ko'nikuvchan, ta'sirchan, ko'plab axborotni o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu davrda siyosiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi xamda egallanadi, kasbiy qiziqishlar yuzaga keladi, o'zligini anglash rivoj topadi, yangi turmush tarzi shakllanadi, uning xulq-atvor uslubi, jamiyatdagi holati o'zgaradi.

Shu bilan birga, ilk yoshlikning dastlabki bosqichlarida o'smirlik davriga xos bo'lgan ayrim odatlar hamda xatti-harakatlar amal qilishda davom etadi. O'tmishning bu tajribasini yetarlicha baholamaslik va hayot yoshlikdan boshlanadi, deb xisoblash noto'g'ri.

Ilk yoshlikda turlituman qiziqishlar ko'p bo'ladi. Bu davrda ta'lim qiziqishlar doirasini kengaytiradi, professional faoliyat esa uni hali toraytirmagan bo'ladi. Tanqidiy fikrlash, hodisani o'zicha baholash, mavqiyeni dalilisbotlar bilan asoslashni talab qilish, hyech bir narsani e'tiqod sifatida qabul qilmaslik, masalani

muammo sifatida qo'yishga qiziqish, original yechimni izlash rivoj topadi. Yoshlar muhitida ko'pincha turli mavzudagi munozaralar ochilib ketadi, tor amaliy muammolargina emas, balki hayot mazmuni, erkinlik va mas'uliyat, baxt va burch bilan bog'liq masalalar xam muhokama etiladi. Shunday ekan, bu davrni «muboxasalar davri», deb atash mumkin.

Eksperimental psixologiya soxasidagi ayrim tadqiqotchilar bu jarayonda «fikrlashning falsafiy usuli xususiyatlarini shakllantirish uchun shartsharoit sifatida qaralishi mumkin bo'lgan «oldindan kura bilish, ziddiyatli vaziyatlarning yechimini topish qobiliyati, narsa va hodisalarning muhim jihatlarini ajrata bilish mahorati, masalalarni hal etishda odatdan tashqari ish qilish qobiliyati», ya'ni fikrlashning moslashuvchanligi, harakatchanligi, ziddiyatli, muammoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish, ularni hal qila olish qobiliyati» mavjudligini ta'kidlashadi.

Yoshlar psixologiyasi va onging bu xususiyatlarini yoshlar ongini rivojlantirishga rahbarlik qilish bo'yicha ilmiy faoliyatda ham, amaliy faoliyatda ham hisobga olish darkor.

Shu bilan birga, yoshlar e'tiqodining yetarlicha barqaror emasligi, ziddiyatli axborotdan foydalanish, hayotiy tajribaning kamligi o'ta negativizm, nigilizm, nufuzli narsalarga bepisandlik bilan qarash, boshqalar fikriga toqatsizlik, qatiylik, talabchanlikning oshirib yuborilishi yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shaxsning qaror topishida muhit, tengqurlar doirasi, ularning qiziqishlari, manfaatlari katta rol o'ynaydi. Yoshlikda o'rtoklik, do'stlik, ishqmuhabbat alohida ahamiyat kasb etadi, ko'plab har xil kechinmalarni yuzaga keltiradi, tuyg'ular olamini o'zgartiradi, shaxsning o'zligini anglashi shakllanishi jarayonini o'zgartiradi. Boshqalarning ichki dunyosiga qiziqish, kishilarni tushunishga intilish, o'zini boshqarish, o'zini nazorat qilish, o'z xattixarakatini baqolash qobiliyati quchayadi. Uy muhitidan birmuncha mustaqil bo'lish, avvalgi qiziqishlarning va xulq-atvor shakllarining so'nishi, o'zgacha, o'z hayot sohasiga, tengdoshlarning yoshlarcha qiziqishlari muhitiga o'tish namoyon bo'ladi.

Yoshlik davrida ijtimoiypsixologik rivojlanish doim xam bir tekis sodir bo'lavermaydigan, ichki ziddiyatlar, uyg'unlikning buzilishi bilan ham sodir

bo'ladigan qaddan tashqari dinamik o'zgarishlar manzarasini hosil qiladi. Biosomatik rivojlanishning davom etishi yosh odam holatiga psixologik ta'sir ko'rsatadi, kuch, quvvat ortishini his qilishda, umumiy hayotiy ko'tarinkilikda, o'zgarishlarga intilishda, maksimalizmga ko'zga tashlanadi.

Harakatga psixologik tayyorlik ko'pincha maqsadlar noanikligi, hayotiy tajriba kamligi, noizchilik, kuchquvvatni zarur tomonga yo'naltira olmaslikka duch kelishi mumkin. Masalan, tanikdi psixolog olim S. Xoll o'spirinlar psixologiyasidagi 12 xil ziddiyatli holatni qayd etadi. Bular: haddan tashqari faollik holdan toyishga olib kelishi mumkin; aksizlarcha quvnoklik o'rnini g'amginlik olishi mumkin; o'ziga ishonganlik uyatchanlikka va jur'atsizlikka aylanishi mumkin; haddidan oshiq altruizm bilan xudbinlik galmagal kelishi mumkin; muloqotga xirs qo'yish o'rnini yolg'izlikka intilish egallaydi; nozik his loqaydlik bilan almashadi, jonli qiziquvchanlik o'rniga akliy beparvolik keladi; telbalik o'rnini befaxmlik egallaydi; o'qishga bo'lgan ehtiros unga bepisand qarashga aylanadi; reformatorlikka ehtiros o'rnini mutaassiblik egallaydi.

Yoshlar psixologiyasi xususiyati bo'lgan beqarorlik uning xulq-atvoriga ham ta'sir o'tkazishi mumkin. Lekin unga faqat salbiy holat sifatida qaramaslik darkor, chunki unda mazkur ziddiyatlarni hal etishga bo'lgan rag'batlar ham mavjud. Turli ko'rinishdagi o'qish, sport, mehnat va boshqa faoliyat buning uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Faoliyat g'ayratshijoatni yo'naltirishga ko'maklashadi, maqsadga erishishdagi qat'iyatni tarbiyalaydi, irodani mustahkamlaydi. Faoliyat orqali kuchquvvat sarflanadi, chidamlilik, jismoniy yukka chidash qobiliyati tarbiya topadi. Va, aksincha, band bo'lmaslik, faoliyatdagi bo'shliq qiziqishlar madaniyati yo'kligi bilan qo'shilib, yoshlarga halokatli ta'sir ko'rsatishi, jamiyatga zid xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bularning bari shaxsni qattiq buzadi, uning yemirilishiga olib keladi.

Tadqiqotchilarning ko'pchiligi «kuchli his'hayajonni», tuyg'ular zo'rligini, kechinmalar xilmaxilligini yoshlar psixologiyasiga xos deb hisoblashadi. Mazkur xususiyatlar yoshlar psixologiyasining hali hammasi emas. Yoshlar hayotining barcha mikrodavrlarini, biopsixologik va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xosligini,

ongi va psixologiyasi, xulq-atvori va turmush tarzi xususiyatlarini o'rganish muhimligicha qolmokda.

Bizningcha, yoshlar ijtimoiy psixologiyasi tuzilmasida fikrlashni, xulq-atvorni xatti-harakatga aylantiruvchi tizim sifatida voqyea bo'luvchi dunyoqarash yo'nalishlari muhim o'rin tutadi.

Dunyoqarash - umuman olamga qarashlarning umumlashgan tizimi, kishilar ilmiy, falsafiy, iqqisodiy, siyosiy, axloqiy, ma'naviy e'tiqodlari xamda ideallarining majmui ekanligi ma'lum. Dunyoqarash inson uchun o'ziga xos ma'naviy murabbiy, yo'lboshchidir. Agar u dunyoni to'g'ri tushunishdan kelib chiqsa, olamni oqilona o'zgartirish uchun mustaxkam asos bo'lib xizmat qiladi. Voqyelikning noto'g'ri in'ikosidan iborat bo'lsa, u holda shaxs hayotida jiddiy to'siqqa aylanadi. Dunyoqarash masalalarida hamda olamni bilish va o'zgartirishga yondashish usullari masalalarida to'g'ri yo'lni topa olmagan inson o'zini ishonchsizlik bilan tutadi, ojiz his qiladi. Shu bois, atrof voqyelikda kishi o'zini ongli va erkin tutishi uchun ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi lozim.

J.Tulenov ta'kidlaganidek, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish har bir kishining dunyoqarash tayyorgarligining ajralmas elementi bo'lgan quyidagi fazilatlarni tarbiyalashni taqozo etadi.

Ilmiy dunyoqarash poydevorini tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlarni bilish tashqil qiladi, ya'ni ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ushbu barcha fanlar sohasi fundamental bilimlarini chuqur o'zlashtirishdan iborat. Bilimning shaxsiy e'tiqodga aylanishi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning navbatdagi ajralmas elementidir. Kishi fanlarning keng majmui bo'yicha ajoyib bilimga ega bo'lishi mumkin, biroq agar ular uning shaxsiy e'tiqodiga aylanmagan bo'lsa, bunday kishini dunyoqarashi bo'yicha tayyor deb hisoblab bo'lmaydi. Bilim shaxsning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va estetik pozisiyasini, kishining ichki e'tiqodi xarakterini shakllantirsagina, ya'ni uning butun hayot tarzi asosiga aylansagina dunyokarashga aylanishi mumkin.

Bilim o'zo'zidan kishining shaxsiy e'tiqodiga aylanmaydi, uni shakllantirish qam kerak. Buning uchun ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning aklidrokgiga,

histuyg'usiga va xoqishirodasiga muayyan maqsadni ko'zlab ta'sir ko'rsatish zarur. E'tiqod mazmunini bilimlar, g'oyalar xarakteri belgilab beradi. Shu bois talabalarga yetkazilayotgan g'oyalar ular tomonidan teran tushunib olinishi va akldrok mulkiga aylanishi lozim. Ular shundagina ongda o'z izini qoldirishi mumkin. Buning uchun subyektlarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish darkor. Busiz ilmiy dunyoqarash kishining shaxsiy e'tiqodiga aylanmaydi.

Mustaqil fikrlashni tarbiyalash esa, o'z navbatida, subyektning ushbu bilimlar, g'oyalarni egallashi jarayonidagi xissiy kechinmalari bilan bog'liq. Kishi ongi faqat aqliy faoliyat bilan chegaralanganida, e'tiqodlar mazmuni biron-bir g'oya bilan, u yoki boshqa mantiqiy bilimlar bilan moye tushgan bo'lardi. Lekin inson his etgan hodda fikrlaydi va fikrlagan holda his etadi. Shuning uchun z'tiqod rasionallik bilan hissiylikning ajralmas aloqasidan iboratdir. Insoniy his'hayajonsiz inson tomonidan haqiqatning izlanishi hyech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi. E'tiqodni hosil qilish ham haqiqatni izlashning bir turidir. Binobarin, kishi g'oyani sof mantiqiy aniqlashdan tashqari g'oyalar borasida muayyan tuyg'uni his etadi, busiz ular kishi e'tiqodining mazmuniga aylanmaydi.

Bilimdan e'tiqodga uni o'zlashtirish va his etish orqali o'tiladi. Shunday kechinmalar tufayli transformasiya ro'y beradi, shu jarayonda ilmiy bilimlar kishi ongida yangi sifat kasb etadi, uning ilmiy e'tiqodiga aylanadi.

Ilmiy bilimlar - kishi egallagan va teran his qilgan, yangi sifatda uning ongingning organik mazmuni bo'lib qolgan g'oyalar va bilimlardir. E'tiqodni hosil qilish subyektning irodasini tarbiyalash jarayonidir. E'tikodlar amaliyotga aylanishi lozim bo'lgani uchun ham e'tiqod hisoblanadi. Subyektning o'z e'tiqodlaridan foydalanishi va o'zida haqiqatan ham bor narsani isbotlashi uchun o'z faoliyatida e'tiqodlariga amal qilishdan va bu bilan ularni biron-bir tarzda ro'yobga chiqarishdan o'zga usuli yo'q. Amaliyot biron-bir e'tiqodning haqiqiyliigi yoki haqiqiy emasligining, ularning ilmiyligi yoxud g'ayriilmiyligining mezon. Amaliyot kishida e'tiqod umuman bor yoki yo'qligining va u qandayligining mezonidir.

E'tiqodlar iroda tufayli muayyan yo'nalish kasb etadi, subyektni tegishli xatti-

harakat qilish, xulq-atvorni namoyon etish sari yetaklaydi. Ilmiy e'tiqod kishi boshdan kechirgan, shuning uchun uning irodasi xamda tegishli xatti-harakat va ishlarni amalga oshirishga tayyorligining anikdovchisiga aylangan g'oyalarni teran o'zlashtirishdir.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning uchinchi elementi - kishida o'z e'tiqodlarini ro'yobga chiqarishga tayyorlikni tarbiyalash. Bilimlar kishi faoliyati, o'z tajribasi, histuyg'usi va kechinmalari bilan mustahkamlangan takdirdagina bilim va xatti-harakat birligi shaxsni dunyoqarash nuqtai nazaridan tayyorlangan kishiga aylantiradi.

Nihoyat, J. Tulenov ta'kidlaganidek, «kishining o'z ishonch e'tiqodini himoya qila olish mahorati», ularni ro'yobga chiqarish uchun kurashi dunyoqarashning to'rtinchi elementidir.

Binobarin, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish: tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlar sohasi bilimlarini chuqur o'zlashtirish; shu bilimlarni shaxsiy e'tiqodga aylantirish; kishining o'z e'tiqodlarini hayotda ro'yobga chiqarishga tayyorligi; o'zgacha fikrlashning salbiy shakllariga qarshi kurashda o'z e'tiqodini ximoya kila olish mahoratini taqozo etadi. Ilmiy dunyoqarashning asosiy tarkibiy kismlarini bilish yoshlarni dunyoqarash borasida tayyorlash yo'llari, shakllari hamda metodlarini anikdashda nihoyatda katta ahamiyatga ega.

## **1.2. Бошланғич синф ўқувчиларига ижтимоий психология фанини**

## **Ўқитиш орқали билиш жараёнларини ривожлантириш.**

Tajribadan malumki bolalarda ixtiyorsiz diqqat durustgina rivojlangan bo'lib, chunki talim jarayonida ixtiyorsiz diqqatning o'sish uchun muhim shart-sharoitlar mavjuddir. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi. Irodaviy zo'riqishsiz osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O'quv materiallarining turli-tumanligi ixtiyorsiz diqqatning to'planishi, markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy tasir etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitishda ko'rsatmaliliklardan keng foydalaniladi. Bu tadbir birinchidan bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan materialni mantiqiy jihatdan o'zlashtirishga, uni tahlil etish mavhumlashtirish va umumlashtirishga to'sqinlik qiladi.

Ularda ko'rsatmalilikka asoslangan dinamik stereotip paydo bo'lishi ham mumkin. Suniy to'siqlar foyda beruvchilarni alomatlardan aralash holda foydalanish yaxshi natija beradi. Bolaning ko'rsatmalilikka berilib ketishi uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiriladi, bola tashqi belgilarga etibor berishga odatlanib, muhim belgilardan chetlasha boradi.

Ma'lumki ixtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi bilan bevosita bog'lanib ketsa, tabiiyki, ular faqat maroqli, quvonchli axborot va matnlar bilan tanishishga intiladigan bo'lib, qoladilar. Natijada o'ta nozik, ya'ni tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga beriluvchi diqqat ularning psixikasida mustaxkamlanadi. Odatlanish murakkab o'quv materiallarini egallashda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun K.D.Ushinskiy bolani faqat o'zini qiziqtirgan narsa bilan emas balki uni qiziqtirgan narsa bilan ham shug'ullanishga o'rgating, bola o'z burchini bajarishdan qanoatlanish uchun ishlaydigan bo'lsin, deb uqtirgan edi. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning etarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va ob'ektda uzoqroq kuta olmaydilar. Bunda tormozlanish o'zaro nomunofiq harakat qiladi. O'qish mashg'ulotlarida tutilish to'xtab qolish, qiroat suratning kamayishi, tovushlarning

tebranishi va pasayishi ba'zida xarf, ibora gaplar tushib qolishi xollari ana shu fizologik mexanizm ta'sirida paydo bo'ladi.

Qator tadqiqotlar birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari darsda faqat 30-35 daqiqa diqqat bilan o'tirishi o'z diqqatini muayyan obektga to'plashi va unda ushlab turishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuning uchun mashg'ulotlarda qisqa tanafuslar o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir. Professor N.F.Dobrenin: «3-4 sinf o'quvchilari o'z diqqatlarinibutun bir dars davomida saqlab tura oladilar. Lekin ular uchun ham qisqa tanafuslar foydalidir. Shuningdek vaqti vaqti bilan mashg'ulotning turini almashtirib, suratini o'zgartirib turish, amaliy va nazariy ma'lumotlarni qo'shib olib borish lozim», - deydi.

O'quvchilar diqqatining xususiyati ko'proq mashg'ulotning suratiga bog'liqdir. Masalan: mashg'ulot suratining o'rta tezligi yoki xaddan tashqari sustligi diqqatning barqarorligi va to'planishiga salbiy ta'sir etadi.

O'quv mashg'ulotlarning o'rtacha suratida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayoni kchik maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy barqaror, mustaxkam, kuchli, to'planuvchan, taqsimlanuvchan, faol, ongli diqqatini rivojlantirishga qulay shart sharoit yaratadi. Bilim olish uchun mustaqil aqliy mehnat qilish, misol va masalalar echish, mashqlarni bajarish takrorlash irodaviy zo'r berishda ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Shuningdek, uning eng zo'r xususiyatlari takomillashadi bu esa ongli boshqarish imkoniyatini beradi.

Bolalarning diqqati o'qish faoliyatiga doim maqsadga muvofiq, ishtimoiy motivlar hamda ularda paydo bo'layotgan yangi xislari (ma'suliyatlilik, javobgarlik, uyalish xislari) bilan bir paytda rivojlanadi.

Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni jamlash, tashkil qilish, zarur bo'lsa uni taqsimlash tashqi kuzatuvchanlikni qarshiligini engib ongli ravshda boshqariluvchi bolsharish uquvi shakillana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xotirasining eng muxum xususiyatlaridan biri-so'z mantiq xotirasi va ma'nosiga tushunib eslab qolish salmog'ining ortishidir. O'quvchi o'z xotirasini ongli boshqarish, eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash jarayonlarini

faoliyatining maqsadga muvofiqlashtirish imkoniyatlariga ega bo`ladi.

Yuqorida aytilganlik birinchi signal sistemasini ikkinchi sistemasidan birmuncha ustunligi tufayli o`quvchilarda mantiqiy xotiradan ko`ra ko`rsatmali – xarakatli xotira muximroq rol o`ynaydi. Shuning uchun ular nazariy qonun qoidalaridan, movhum tushunchalardan ko`ra yaqqol ma'lumotlar. Axborotlar voqea va xodisalarni obrazlar va narsalarni tezroq va mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari ta'limiy materiallarning ichki bog`lanishiga ahamiyat bermay ma'nosiga tushunmay, quruq eslab qoladilar.

O`rganilayotgan materiallarni mantiqiy taxlil qilmay, yodaki o`zlashtiradi. Buning sabablari: 1) Ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda durustroq rivojlanganligi ma'lumotlarni aynan o`zgarishsiz eslab qolish, imkonini yaratadi. 2) O`quvchilar o`qituvchi qo`ygan vazifani anglab etmaydilar natijada uning «to`g`ri tushintirib ber» degan ta'labini so`zma so`z takrorlash deb biladilar. 3) Ularning nutq boyligi etishmasligi (ilmiy atamalar va til qonunlarini bilmasligi) materialni ijodiy to`ldirish, unga ko`pincha qilish imkoniyati yo`qligi uni so`zma-so`z qaytarishni osonlashtiradi. 4) o`quvchilar matinni to`g`ri usullar yordamida eslab qolishni bilmaydi. A.A.S. eslab qolishning to`g`ri usuli sifatida matindagi manodori so`zlarni guruhlarga ajratish tayanch nuqtani topish so`zlab berish uchun reja tuzish va o`tilgan mavzularni idrok etilgani xolda yangi mavzuni takrorlashni tavsiya qiladi.

Ta'lim jarayonida o`quv materiallarning ma'nosina mohiyatini turli muloxazalarni, dalillarni ilmiy asos bilan eslab qolish vaesga tushurish orqali o`quvchilarda mantiqiy xotirada takomillashadi. Ularni A.A.Smirnov tavsiya qilgan usul va vositalar bilan qurollantirish o`qituvchining vazifasi hisoblanadi. Aqliy mehnatda mutaqillikni vujudga keltirmay bilishga intilish qobiliyatini o`stirish mumkin emas. Shuning uchun bolalarga izohli o`qish masalaning shartni sharxlash muammosi vaziyatni yaratish va hal qilishini o`rgatish muhim ahamiyatga ega. Ixtiyoriy eslab qolish va ixtiyoriy esga tushurishning mahsuldorligi ko`p jihatdan o`quvchilar ilmiy faoliyatining darajasiga bog`liq. Aqliy faoliyat darajasi ularning

eslab qolishini tashkil qilish va boshqarish usullarni egallashiga uzviy aloqadordir. Mehanik «xotira» usullariga tarif yoki qoidani soʻzma- soʻz eslab qolish. Oʻz soʻzi bilan aytib bersa boʻladigan materialning mohiyatini eslab qolish birlamchi va ikkilamchi qismlarga ajratish bir joyga toʻplash eng zarur tushunchalarga alohida etibor berish kiradi. Esrab qolish esga tushurish esda saqlashning samaradorligini maqsadni anglash va unga intilish negizida vujudga keladi. Xotiraning samaradorligi oʻqish motivlari bevosita bogʻliqdir. T.N. Bolar oʻz tajribasida bir guruh oʻquvchilarga oʻquv matnini bundan keyin sira kerak boʻlmasligini 2-guruhga undan tez foydalanishini aytib oʻzlashtirishni tavsiya qilgan. Olingan natijalariga koʻra birinchi guruh faoliyatida qoʻllash ustanofkasi yuqori samara bergan matn tez eslab qolgan va uzoq vaqt esda saqlangan. L.V.Zakkovning tadqiqotida ham eslab qolishga intilishning roli oʻrganilgan uzoq vaqt eslab qolishga intilish ham yaxshi samara berishi isbotlangan. Shunga asoslanib psixalogiya faniga «uzoq vaqt eslab qolish» hamma vaqt «esda saqlash» iboralari kiritilgan.

Umuman kattalarning xususan oʻqituvchilarning muhim vazifalaridan biri oʻquvchilarda materiallarni eslab qolish uchun muayyan intilish ham tarkib toptirish ulrga eslab qolishning usullarni fikr yuritish opperatsiyalarini (taqqoslash, tahlil qilish) oʻrgatishdan iboratdir.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun talim jarayonida oʻzini- oʻzi nazorat, materialni takrorlashda tekshirish esga tushurishni mashq qilishni unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi oʻquvchilrga eslab qolish va eslash usullari oʻrgatilmasa ular materialni bevosita takrorlashda, uzoq vaqt toʻxtab qoladilar. Shuning uchun ham eslab qolish mehnat (K.D.Ushinskiy) hisoblanadi. Lekin oʻquvchilar materialni eslashni xush koʻrmaydilar va uni osongina tiklash yoʻlini tushunmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushurish va eslash usullarini oʻrgatish mantiqiy xotira oʻsishining garovidir.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar oʻz oʻquv faoliyatini tasiri talabi, imkoniyat va shart- sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning hayoli tevarak atrof tassurotlari dunyo ajoyibotlari, koʻrsatmalilik, tasviriy sanat asarlarini etarli

darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Obrazlar, suratlar, chizmalar, shartli belgilar nomalum narsalarning alomatlari tabiiy manzralari fazoviy tasavvurlar jonlanib o`quvchilarning hayolida paydo bo`ladi. Tashqi obraz yaratish bilan uzviy bog`liq bo`lgan tiklovchi hayol bolaning ruhiy dunyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Talim jarayonida bolalarning yorqin, tiniq, aniq, yaqqol tasavvur obrazlari hayol yordamida muayyan voqeylikka aylanadi.

O`rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o`qilgan badiiy asarladagi obrazlar tartibga solinadi, yaxlit butunligidan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi. O`qish davomida turmush tajribasida to`plangan taasurotlarni qayta tiklash, yangi belgilar bilan boyitish, ularni o`zaro birlashgan holatga keltirish, yangi obrazlar ijodiy izlanishlarning eng muhim omili- ijodiy hayolni shakllantiradi. Ijodiy hayolning eng muhim xususiyatlaridan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolliqi mantiqiy qonunlarga uzviy bog`liqligi, g`ayritabiiy ajoyib-g`aroyib itaklardan uzoqligidir. Shuning uchun o`quvchi hayolida turmushga, voqeylikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar ko`lami tobora kenayadi. Bu esa o`quvchida xodisalarni tanqidiy baholash ko`nikmasi paydo bo`lganini, bildiradi. Natijada uning hayoli taasurot qurshovidan bo`shaydi. Yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning obektiv qonunlarga suyangan holda baholash yanada takomillashadi.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar hayolining xususiyatlaridan yana biri hayotiy voqelik bilan fantaziyaning o`zaro aralashib ketishidir.

Malumki o`quvchi yaqqol voqeylik yoki xodisani o`zi yaratgan qo`shimcha obrazlar, tafsilotlar bilan boyitib boshqalarning diqqat- etiboriga uzatadi. Bu uning yolg`onchiligi emas, balki hayolning xususiyatidir. Ayrim bolalar haqiqitdan ham fantaziyaning aralash holatiga chindan ham ishonadilar. Bunda soddalik bilan ishonuvchanlik uzviy bog`lanib ketgan bo`ladi. Bazi hollardan mazkur yoshdagi o`quvchi boshqalarning diqqatini o`z axborotiga qo`yishi maqsadida ham fantaziya dan unumlm foydalanadi. Bunday holat birinchidan bola o`zining sinfdagi o`rtoqlari orasida yoki oilada allaqanday kamsitilganda 2dan o`z tengqurlari yoki kattalar yaratishi jaryonida namoyon bo`lishi mumkin. Biron o`quvchilar

hayolparastlikka, fantaziyalikka berilishining oldini olishga pedagog, umuman kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar tafakkurining quyidagicha tadqiq qilganlar: tafakkurning yosh davrga xos xususiyati uning rivojlanishi tushunchalari shakllantirish omillari bolalar narsalarning o`zgarmaydigan bazi belgilari dolzarbligini payqab olmasligi ularga tafakkurning eng chuqur xususiyatlardan biridir. Buni J.Piyaje o`z tajribasida ko`rgan. Unda 7-8 yoshli bolalar xamirdan bir xil zuvala qilinsa, so`ngra ularning biridan kulcha yasalsa, xamirning miqdori bir xil bo`lmay qoladi, degan xulosa chiqarganlar. Malumki talimning dastlabki bosqichida bolaning umumlashtirishi juda sodda bo`ladi va faqat o`xshashlik belgisiga asoslanadi. Keyinchalik esa bolalar narsa va xodiralrning tashqi sifat va xususiyati belgilarini guruhlarga ajratish, narsa va xodisalarning xossalari, qonuniyatlarini, murakkab ichki bog`lanish va munosabatlarning muhim belgilari bo`yicha umumlashtirishga o`tadi. Birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari o`quv faoliyatlarini buyumlarning jozibador tashqi ko`rinishiga tayanib tashkil qiladilar: quyosh, mamaqaldiraq, chig`ir avtomobil, qush va hokazolar to`g`risida fikr yuritishda quyosh isitadi, yoritadi «mamaqaldiraq guldirlaydi», «sigir sut beradi» kabi hukmlar chiqaradi. Shuning uchun agar o`rganilayotgan materiallarning muhim belgi va alomatlarini bevosita aniqlash zarurati tug`ilsa, darrov ko`rinadigan misolga muvofiq qiladilar. R.T.Natodzeyning tajribasida kichik maktab yoshidagi kit bilan delfinni farqlash imkoniyati yo`qligi malum bo`lgan va ular ikkovini ham baliq deb ataganlar. Bu xol umumlashtiruv ko`zga tashlanuvchi tashqi belgi va asoratlarga qarab amalga oshishini isbotlaydi.

O`quvchilar 3-sinfda o`tganidan so`ng umumlashtirishda moddiy dunyodagi voqeylikning eng muhim munosabat va bajarishlarni aks etuvchi ichki belgilarga tayanadilar. Jumladan suv, havo, va boshqa narsalarning issiqdan kengayishini umumiy muhim alomatga asoslanib umumlashtira oladilar.

Bundan tashqari o`simliklar dunyosi, ularning rivojlanishi, ko`payishi changlanishi kabi belgilarga tayanib «jonli tabiat» iborasini aytadilar.

Bolalarning mulohazalaridan «paxta dalada o`sadi», uni paxtakorlar

etishtiradilar, zavodda tozalanadi va ip igriliadi kiyim kechaklar tayyorlanadi, (2-sinf o`quvchilari). «bodom daraxti issiq o`lkalarda o`sadi». (1-sinf o`quvchisi), «tulki yovvoyi yirtqich hayvon, u o`rmonda yashaydi, jonivorlarni tutuib eb tirikchilik qiladi, mo`ynasi qimmat basho. Shuning uchun ovchilar uni ovlaydilar. Uning mo`ynasidan palto yoqalari, telpak, po`stin tikiladi» (3-sinf o`quvchisi).

Bolalarning mulohazalaridan ko`rinib turibdiki ularda muhim belgilar miqdori etarli darajada emas.

Ular o`simliklarni tariflaganda faqat daraxtlarning qaysi turiga mansubligi, qaerlarda o`sishi, inson va xayvonlar uchun qanchalik foydaliligini takidlaydilar. Hayvonlar to`g`risida mulohazalar yuritganlarida ham bir muncha kamchiliklarga yo`l qo`yadilar. Masalan: birlamchi xususiyatlarga etibor bermaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar ta'lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o`zlashtirsada oldingi darslarda o`zlashtirilgan turli alomatlar, xususiyatlarni qorishtirib, chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va xodisalar bilan ularning belgilari o`rtasida uzviy bog`lanish tarkib topilgan bo`ladi.

#### *Kichik yoshdagi o'quvchilar tafakkurining o'sishi*

Bolaning maktabga o'tishi bilim asoslarini muntazam ravishda egallab borishi tafakkurnig o'sishiga g'oyat katta tasir ko'rsatadi.

O'quvchilar ta'lim protsesida tabiat va ijtimoiy hayotdagi bir qanch yangi tushunchalar bilan, chunonchi, haybonot dunyosi, o'simliklar olami va jonsiz tabiatdagi xilma xil narsalar bilan, ularning turlari bilan tanishasilar. Shuningdek, ona tili va arifmetikadan muayyan darajada tushunchalar oladilar.

Ilmiy tushunchalarni o'qib o'zlashtirish protsesida boladagi analiz-sintez, umumlashtirish, abstraksiyalash kabi murakkab fikr yuritish operatsiyalari o'sib, takomillashib boradi.

Kichik yshdagi o'quvchilar tafakkuri boshlang'ich ta'limning dastlabki davrlarida, asosan, konkret, obrazli harakterga ega bo'lib, ular o'zlari bevosita ko'rayotga va eshitayogan, umuman, bevosita idrok qilayotgan narsalari haqida amaliy fikr yuritadilar. Shu sababli bu yoshdagi bolalar o'zlari xali ko'rmagan, idrok

qilmagan ko'p xodisa va voqealarning qanday sodir bo'lishini, ularning o'zaro bog'lanishini fikran analiz-sintez qilib, ulardan to'g'ri xulosa chiqara olmaydilar. Shuningdek bu yoshdagi o'quvchilar o'zlarining qilayotga xatti - harakatlari va ishlari qanday oqibatlariga olib borishini va undan nimalar kelib chiqishini ham aniq tasavvur qila olmaydilar.

Kichik yoshdagi bolalar, ayniqsa ijtimoiy hayot hodisalarini mustaqil suratda kuzatib, ularning kerakli tomonlarini analiz va sintez qilish yo'li bilan o'zlarich ajratib olishni bilmaydilar. O'qituvchi bunga bolalarni o'rgatish uchun ular oldiga konkret savollar qo'yib borishi va bu savollarga javob topish uchun tegishli narsa va hodisalarni kuzatishga, ularning muhim tomonlarini ko'ra olishga, ular haqida tegishli xulosalar chiqarishga o'gatib borish lozim.

Bolamning fikrini biror narsaga yo'naltirish va uni o'sh narsa haqida o'ylashga erishish uchun uning fikrini konkret bir narsaga yo'naltirish, uning oldiga hal qilinish lozim bo'ga aniq bir masalani qo'yish va unga javob topish uchun ehtiyoj paydo qilish kerak. Bunda o'quvchilar fikrini muayyan tomonga yo'naltiruvchi aniq vazifalar belgilab berishning ahamiyati kattadir. Bola oldiga qo'yiladigan aniq savol va vazifalar uning miyasidagi bog'lanishlarni aktivlashtiradi va ularning yo'nalishiga tasir qiladi. Bola fikrini aktivlashtirishda hayratga qolish, taajublanish, shubha singari hislarning ahamiyati ham kattadir. Bolada tug'uladigan ajablanish tafakkur protseslarini aktivlashtiradi.

Bola fikrlash protsesida paydo bo'ladigan o'zidagi fikr "hukum" va tushunchalarni nutq vositasida ifoda qiladi. O'quvchi tomonidan o'rganib va o'zlashtirib olingan har bir yangi so'z undagi muayyan tushunchani muayan mazmunni ifodalaydi. Shuning uchun ham bola nutqining o'sishi, ayniqsa yangi so'zlarni egallashi va ma'nosini bilib olishi uning tafakkurining o'sishida tushunchalarning taraqqiy etishida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning boshlang'inch ta'lim davrida I sinifdan boshlab ona tili, arifmetika, tabiat va ijtimoiy hayotga doir o'zlashtirib olishi lozim bo'gan tushunchalar doirasi o'quv programmalarida belgilab berilgan bo'lib, ular bu tushunchalarni o'qituvchining tushuntirib berish vositasida o'zlashtirib

oladilar. Kichik yoshdagi o'quvchilarning tushuncha hosil qilishlarida o'ziga xos xususiyatlari bor. O'qituvchilar boshlang'ich ta'lim protsesida o'quvchilarning o'quv programmalarida ko'rsatilgan har bir fandan muayyan tushunchalarga ega bo'lishlariga erishish uchun bola tafakkuriga xos bo'lan xususiyatlarni yaxshi bilishlari va ta'lim ishlarini bola xususiyatlariga moslab olib borishlari kerak. Bola maktabdan tegishlich bilimga ega bo'lish, keraklicha ko'nikma va malakalar hosil qilish natijasida ilmiy tushunchalar orttira boshlaydi. Bolada muayyan darajada ilmiy tushunchalar hosil qilishda oldin ular ga tegishlich bilim berish va undan mantiqiy fikr yurutish qobiliyatini taraqqiy ettirish lozim. Malumki, bola biror narsaga tayanmasdan fikr yuritib olmaydi. U biror narsa haqida fikr yuritayotganda uni hayolan ikkinchi bir narsa bilan solishtirib, taqqoslab ko'radi. Ular o'rtida bo'lgan o'xshashlik yoki tafovutni aniqlab oladi. Masalan, bola ona tilidan izohli o'qishdan yirtqich hayvonlar to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish uchun o'rgatilayotga yirtqich hayvonni shu hayvonga yaqin turgan ba'zi uy hayvonlari bilan taqqoslab ular o'rtasidagi tashqi o'xshashlik yoki tafovutni aniqlab oladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar o'zlari bevosita idrok qiladigan va tasavvur etadigan konkret buyumlar va ularning ayrim qismlarini bir-biri bilan taqqoslay oladilar. Taqqoslaydigan buyumlarni ular qo'lga ushlab ko'rib uning shaklini, rangini, katta-kichikligini sinchiklab qarash orqali "amaliy ravishda solishtirib" ular o'rtasidagi bo'lgan farqini yoki o'xshashligini topa oladilar. Bu yoshdagi bolalar hali abstrak fikr olmaydiganlari tufayli quruq so'zlar vositasi bilan beriladigan tushunchalarni fikran bir-biriga taqqoslab ulardan tegishli xulosa chiqara olmaydilar. Muayyan buyum yoki hodisa haqida to'g'ri va aniq tushuncha hosil qilishi uchun real buyumni aks ettiruvchi yaqqol obrazi, surati, sxemasi yoki modelini bir-biriga taqqoslab ko'rib, ularning o'xshash yoki tafovutini aniqlab oladi. Masalan, bo'rini it bilan, qoplonni mushuk bilan solishtirib ular haqida to'g'ri tasavvur hosil qiladi.

Malumki, fikrlash protsesida tafakkur obyekti faqat taqqoslab qilinmasdan, uni analiz va sintez qilinadi.

Talim-tarbiya protsesida tabiat va jamiyat hodisalarini ifoda etadigan ayrim

tushuncha va bilimlarni egallab loshda tafakkurnig analitik-sintetik faoliyat g'oyat katta ahamyatga ega. Bola muayyan tushunchalarni o'qib olishda asosan analitik-sintetik tafakkurni faoliyatiga asoslanadi.

Malumki, analiz muayyan buyum yoki hodisani tarkibiy qismlariga ajratib, fukr yuritishdan iborat bo'lsa sintez, aksincha, uning ayrim element yoki qismlarini bir butun qilib, birga qo'shib fikr yuritish protsesidir.

Bola analiz vositasida butun bir narsaning qismlariga bo'lgan munosabatini bilib oladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar hali murakkab fomada analiz va sintez qila olmaydilar.Ular qiladigan analiz va sintez juda oddiy shakilda boladi.Masalan, ular qirqma harflardan tuzulgan ayrim so'zlarni bo'g'inlarga ajratib, bo'g'inlarni esa tovushlarga bo'ladi, suningdek, qirqma harflarni qo'shib ulardan butub bir so'z ham tuza oladilar.Mexnat darsida o'qituvchining ko'rsatmasi bilan oddiy stanokni qismlarga ajratish va ularni yig'ish singari amaliy ishlarni bemalol bajara oladilar.

Ta'lim protsesida bunfay ishlarnu muntazam o'tkazib borish bilan o'quvchining II sinfga chiqqanidayoq birmuncha murakkabroq shakildahi analiz va sintezlarni ham bajara oladigan bolishiga erishiladi.Bunda o'qituvchinig butub bir narsa qanday qismlardan elementkardan tashkil topishini va uni element yoki bo'lajlaridan qanday qilib bir butun narsaga aylanishi yaqqol ko'rgazmali ravishda tushuntirib, amaliy ravishda k'rsatib breshi va bolalarning o'zlariga bu ishni bajartirib ko'rish juda katta ahamyatga egadir.

Shunday qilib, tafakkurning boshqa faoliyatlar bilan birgalikda analitik-sintetik faoliyati ham bolaning hayot tajribalari, olgan bilim va tushunchalariga bog'liq holda takomillashib boradi.

III - IV sinflarga borib o'quvchilar og'zaki va yozma nutiqni durustgina egallaydilar.Til garmmatikasini o'rganadilar. Shuningdek metr o'lchovlari, vaqt o'lchovlari bilan tanishadilar. Bular o'quvchilarni buyumlar o'rtasidagi umumiy miqdor munosabatlari haqida fikr yuritishga, ularni fikran analiz va sintez qila bilishga o'rgatadi.

Shunday qilib, IV sinf o'quvchilarida boshlang'ich darajadagi abstrakt, fikriy

analiz va sintez formalari o'sib boradi. Lekin bu davrda ham o'quvchilar quruq so'z, abstrakt tushunchalarga tayanib emas, balki konkret tushuncha va obrazlarga tayanib analiz va sintez qila oladilar. Shuning uchun ham boshlang'ich talim davrida ko'rgazmali o'qitishni roli va tutgan o'rni g'oyat katta.

Boshlang'ich talim davrida tabiat va ijtimoiy hayot qonuniyatlarini aks ettiruvchi sodda va boshlang'ich ilmiy tushunchalarga ega bo'lish, masalan o'simlik va hayvonotlarning qanday ko'payishi, ularning yil fasillari va iqlimning o'zgarishi bilan bog'liq ravishda bir holatdan ikkinchi holatga o'tishlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish va hokazolar bola tafakkuridagi umumlashtirish, abstraksiyalash singari yuksak faoliyatlarning o'sishiga katta tasir ko'rsatadi.

Umumlashtirish faoliyati tufayli bola o'qib o'rganayotgan bir turkum narsalarning bir-biriga o'xshash bo'lgan umumiy belgilarini topish va ularni bitta tushuncha qilib bilish imkoniyatiga ega bo'ladi, masalan izohli o'qishda birinchi sinf bolalari daftar, qalam, ruchka, siyohdon, sumka singari buyumlarni o'quv asboblari ekanligini yoki sinf xonasidagi parta stol, stul, shkaf kabi buyumlarning mebel ekanligini umumlashtirish yordamida biladi.

Boladagi umumlashtirish faoliyatini o'stirishda unga bir turkumdagi narsalarning muhim belgisini topdirish va shunga qarab ularni bir turkumga kiritish ustida doim mashq qildirib borishning ahamiyati katta. Mohir o'qituvchilar I sinfdan boshlab o'quvchi fikrlashidagi umumlashtirish faoliyatini o'stirishda aktivlashtirish usullaridan muvofaqiyatli foydalanadilar. Masalan, respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Oqilxon Sharafiddinov I sinfdagi o'quvchilarni uy hayvonlari bilan tanishtirayotganda sigir, qo'y, echki, it, mushuk singari hayvonlarning hayoti, ularning nima bilan ovqatlanish, odamga qanday foyda keltirish, ularning qo'lda boqilish, nihoyat manashuning uchun ular uy hayvonlari deb atalishini, tushuntirib, o'quvchilarda ko'rgazmali o'quv qurollari vositasi bilan yaqqol, ravshan tasavvur hosil qilgach, hosil qilingan muayyan tushunchalarga tayanib suhbat o'tkazish usuli bilan umumlashtirishga o'rgatadi.

O'qishni dastlabki kunlaridan boshlab bola tafakkurining umumlashtirish faoliyatini o'stirish ustida tegishli ish olib borish tufayli bola 8-9 yoshga borib

buyumlarnig muhim belgilarini ancha to'g'ri topa oladigan va belgilariga qarab ularni umumiy bir gruppaga kiritib oladigan bo'lib qoladi. Bunda talim protsesida programma asosida sistemali ravishda o'ttirilgan bilimlar ilmiy tushunchalar va tasavvur doirasining o'sib borish katta rol o'ynaydi.

I - II sinf o'quvchilar muayyan gruppaga oid buyum va hodisalar haqida ancha malumotlarga ega bo'ladilar. Lekin, shunga qaramay ozlashtirib olgan konkret bir tushunchani muayyan tushunchalar gruppasiga kiritishda uning muhim belgisini nazarda tutishni unitib, ko'pinch tashqi tomondan ko'zga tashlanib turadigan alomatlariga qarab umumlashtirishga urinadilar. III - IV sinflarga borib narsalarning tashqi belgilarinigina emas, balki ular uchun xarakterli bo'lga tur va jins belgilarini ham to'g'ri ko'rsata oladiga bo'la oladilar.

III sinf o'quvchisi Nosir A." paxta nima " degan savolga : "Paxta dalada o'sadi, kuzda oppoq bo'lib o'sadi undan kiyim - kechak va boshqa narsalar tayyorlaniladi ", deb javob bergan.

III sinf o'quvchisi Aziza K. esa yirtqich hayvonlardan bo'rini shunday tariflaydi: " Bo'ri - bu yovvoyi hayvon, qo'ylarni, buzoqlarni tishlab , bug'ib o'ldiradi, uni ovchilar otib o'ldiradi terisidan po'stin shapka tikadilar. Men bo'rinin juda ham yomon ko'raman ".

IV sinf o'quvchisi Shavkat A. kedr daraxti haqida shunday deydi: "Kedr - igma bargli daraxt, taygada o'sadi, uning mayda yong'oqlari bo'ladi, undan yog' qiladilar."

Bunday faktlar shuni ko'rsatadiki, III va IV sinflarda bolalar har bir buyumni qanday turkumga kirishini undan nimalar qilinishi aytib bera oladilar, shu bilan birga o'hs abuyumga nisbatan o'zlarining ijobiy yoki salbiy munosabatlarini ham bildiradilar ( masalan "Men bo'rini juda ham yomon ko'raman" )

#### *Kichik yoshdagi o'quvchilarda hukm va xulosa chiqarishning o'sishi*

Bola ayrim buyum va hodisalarning sifat, xususiyatlarini hamda ular o'rtasida bo'lgan munosabatlarni hukm va xulosa chiqarish tarzida ifodalaydi. Masalan "olma mevali daraxt", "g'o'za suvsiz joyda o'smaydi" , "temir issiqdan kengayadi" va hokazolarni deyish bilan o'quvchi buyumning nima

ekanligi uning xususiyati va boshqa narsalarga bo'lgan munosabati haqidagi o'z tushunchalarini ifoda qiladi. Bola tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan o'z ilmiy tushunchalarini bir-biriga mantiqiy ravishda bog'lab, yangi bir fikr (hukm)ga keladi va ularni o'z - o'zlarida, gaplarda tasdiq yoki inkor qilish tarzida bayon qiladi. Bunda ayniqsa ona tilining grammatik tuzilishdan xabardor bo'lishi, og'zaki va yozma nutqni egallash g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Hukm va tafakkurning boshqa formalarining o'sishi bilan nutqining taraqqiy etishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bola tilning murakkab grammatik formalarini egallab borishi bilan birga unda murakkabroq hukm hukm formali ham o'sib boradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar dastlab tevarak atrofda yuz berayotgan ayrim faktlarning tashqi alomatlariga qarab fikr (hukm) yuritadilar. Masalan "Qo'zichoq kichkina bo'ladi", "Qor sovuq bo'ladi", "Pavta yumshoq bo'ladi" va hokazolar.

Buyum va hodisalarning sifat va xususiyatlari hamda bir - birlariga bo'lgan munosabatlarni chuqurroq bilib borish bilan bola faqat yuz berga faktlar haqidagi hukmlarni tashqi belgilariga qarabgina emas, balki ichgi munosabatlariga qarabham boshqa shakillarda bayon etadigan bo'ladi. Bunda bolaning yuz beradigan fakt va hodisalarning nima sabablar bilan bog'liq ekanligini chuqurroq tushunishi katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilar II sinfga chiqqanlaridan keyin faqat tasdiq va inkor shalidagi hukmlarni emas balki extimolli va ayiruvchi hukm formalaridan ham foydalanadigan bo'ladilar. Yuz beradigan hodisalar birgina sabab bilan sodir bo'lmay boshqa sabablarga bog'liq xolda sodir bo'lish mumkin ekanligini ham ifoda qila oladigan bo'lib qoladilar. Maslan II sinfda o'qituvchi yo'qlama qila turib darsga kelmagan ayrim o'quvchilarni nima sababdan darsga kelmaganligini so'raganda sinf navbatchisi shunday javob beradi:

- Bilmadim, Ra'no kasal bo'lib qolgandir yoki buvisinikiga borgan bo'lsa, kelaolmagandir.

Navbatchining bu javobidan shu narsa ko'rinadiki, u o'quvchining har xil sabablar bilan darsga kelaolmay qolishi mumkin ekanligini tushunadi va o'z

tushunchasini ancha murakkab ayiruvch hukm tarzida ifodalay oladi.

I va II sinf bolalari muhokama qilishda o'z fikrlarini ifoda etishda bevosita o'zlari o'rgangan va o'zlari uchun ayon bo'lgan faktlarga tayanadi.

Ta'lim protsessida o'qituvchi o'rta savollar tashlashi berilgan savollarga to'g'ri javoblar talab etish o'quvchilarni bu savollarga to'g'ri javoblar axtarishini o'rgatib borishi o'rta masalalar tashlab, o'quvchilarni o'sha masalalarning shartlarini topishga va qanday yo'llar bilan masalani hal etish mumkin ekanligi tahlil qilib ko'rishga, gipoteza tuzish singari fikrlash usularidan foytalanishga o'rgatib borishi g'oyat katta shamyatga egadir

III va IV sinflarda bolalar qat'iy ayiruvchi va ehtimolli hukmlardan ancha yaxshi foydalana oladigan bo'ladilar. Lekin boshlang'ich talim davrida bolalar asosan idrokka gina tayanib hukm qilish fan asoslarini chuqurroq o'zlashtirish va abstrakt tushunchalarni egallab borish bilan bog'liq holda o'sib boradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar o'zlaridagi fikrlarni bir - birlariga bog'lab, ulardan yana bir fikr xulosa chiqaradilar. Ular ta'lim Protsessida o'zlashtirib olgan bilimlariga, ona tili, arifmetika, tibbiyot fanlarini o'qish jarayonida hosil qilgan tushunchalariga muayyan darajada tayangan holda ana shunday hulosalar chiqaradilar. Lekin 7 - 8 yashar bolalar o'z muhokamalarida abstrakt umumiy qoidalarga saoslanib hulosa chiqara olmaydilar Ular asosan ayni paytda sezib idrok qilinayotgan buyum va hodisaga tayanib konkret obrazlar vositasi bilan amaliy ravishda muhokama yuritadilar. Masalan 7 yashar o'quvchi qalam sanoq cho'plari gugurt qutichasi singari buyumlarning haqida hulosa chiqaradi va ularning suvda nima uchun cho'kmasligi muhokama qilish yo'li bilan aytib bera oladi ammo yuz berayotgan ayrim hodissalarni umumiy qonuniyatlarga bog'lab o'z fikrlarini asoslab berishni bunda umumiy qoidalarni dalil qilib keltirishni bilmaydi. Masalan I sinf o'quvchisi Zohiddan "Qalamdon suvda cho'kadimi yoki cho'kmaydimi?" deb so'raganda u : "Qalamdon suvda cho'kmaydi. Iqbolning qalamdoni ariqqa tushib oqib ketayotganida biz uni ushlab olganmiz", deb javob bergan. Yigitchaning bunday javobi shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdagi o'quvchilar yog'ochdan yasalgan buyumlar suvda cho'kmasligini va qalamdon ham yog'ochdan

yasalgan buyum ekanligini yaxshi bilsalar ham biror hodisa yuzasidan deduksiya usuli bilan tegishli hulosani chiqarishda ya'ni umumiy qoidani dadil qilib keltirish o'rniga juziy faktlarni aytish bilan kifoyalanadilar.

Ta'lim protsesida ayrim juziy o'xshash faktlarni bolalarga ko'rsatib umumiy hulosalarni qanday qilib chiqarishni o'rgatib va mashq qildirib borish yo'li bilan ularda o'xshash faktlarni umumlashtirib induksiya usulida hulosani chiqarish qobiliyatini o'stirib boriladi. Lekin kichik yoshdagi o'quvchilar sabab natijani bog'lanishlarni aks ettiruvchi umumiy qoidalarni hali chiqarib bera olmaydi. Ulardagi bunday aqliy qobiliyat turli faktlarni o'rganish bilan birga o'xshash faktlarni umumlashtirish va ulardan yangi fikr hulosani chiqarish ustida aqliy mashq qildirish natijasida o'sadi.

Shuning uchun dars jarayonida o'quvchilarga ayrim faktlarni o'rgatishi bilan masalan har xil jismlarni qizdirib ko'rsatish va ularning qizigandan kengayishini namoyish qilish bilan bir vaqtda ulardan tegishli hulosalar chiqarishni ham o'rgatish zarur. Agar bunday ishlar munyazam ravishda o'tkazib turilmasa o'xshash faktlardan o'quvchilarni o'zlari hulosani chiqara olmaydilar. Bu borada olib borilayotgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, III sinf o'quvchilari turli jismlarni qizdirib ko'rib ularni issiqda kengayishini uqib olganliklariga qaramasdan barcha jismlar qizdirishdan kengayadi degan hulosani mustaqil holatda chiqara olmaganlar.

Ular qattiq jismning idishdagi suv va havoning qizdirganda kengayishini to'g'ri tushuntirib bera olmasalar ham biroq ular o'rtasidagi mavjud umumiylikni ko'rsatib bera bilmaganlar. O'quvchilar IV sinfga chiqqanlarida ayrim hodisalar o'rtasidagisabab - natijani bog'lanishlarni aytib bera oladigan o'xshash faktlardan umumiy qoidalarkeltirib chiqara oladigan bo'ladilar. Ammo ular o'zlari amlda qilib ko'rgan va tegishli tushuncha hamda tasavvur hosil qilgan narsalari yuzasidan bunday hulosani chiqara olsalarda hali o'z tajribalarida uchratmagan narsalarini umumiy qoidani tatbiq qilishni bilmaydilar. Demak ulardagi induksiya o'zlari bevosita ko'rgan ayrim faktlarga ya'ni o'z tajribalariga tayanadigan induksiyalardan iborat bo'ladi. Shuning uchun kichik yoshdagi o'quvchilar ona tili

arifmetika tibbiyot tarix singari fanlardan hosil qilgan juda ko'p faktlarni ilmiy tushunchalarni o'zlaricha bir sistemaga sololmaydilar. Bunday fakt va tushunchalarni ular bir - biriga bog'lamasdan ayrim - ayrim hollarda o'zlashtirib oladilar.

Bola tafakkurini o'stirishda ta'lim protsessida hosil qilinadigan nazariy bilimlarning ilmiy tushunchalar va faktlarnig turmushda kerak bo'lishni amaliy ravish da ko'rsati borish juda katt ahamyatga ega. O'quvchilar o'zlashtirib layotga bilimlarnig kundalik hayotda amaliy ravishda tadbiq qilishnin sinab ko'rish praktikada ishlatib ko'rish natijasida maktabda o'qib o'rganayotgan barcha fanlarni bilish zarur ekanligi binobarin ayrim fanlar ham chunonchi arifmetika ham turmushda juda kerak bo'ladigan fan ekanligini tushunib yetadiga bo'ladilar.

Ona tili va tibbiyot darislarida o'quvchilar ko'pincha induksiyadan foydaalniladilar. Ular ona tili tibbiyotdan ayrim fakt va hodisalar bilan tanishgach ularni tahlil qilish asosida umumiy bir qoidani aniqlashga o'rganadi. Bu esa boladagi induktiv fikrlash faoliyatini o'stiradi.

Shunday qilib boshlang'ich talim protsessida ayniqsa III va IV sinflarda o'qib o'rganayotgan fan asoslarini o'zlashtirish davomida boladan induktiv va deinduktiv hulosa chiqarish formalari o'sib boradi. Lekin ulardagi bunday induktiv va deinduktiv xulosa chiqarishlar dastlab muayyan shakilga ega bo'lgan yaqqol obrazlarga tayanib chiqariladigan induksiyalardan iborat bo'ladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda buyum hodisalarni umumlashtirib so'z bilan ifoda qilinadigan abstrakt tushunchalarga tayanib hulosalar chiqarish algebra geeometriya va grammatika fanlarini o'qib o'rganish natijasida asta sekin o'sib boradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar abstrakt faktlarning o'sa boshlashi yangi bilimlarni egallash uchun katta imkoniyat beradi. Induktiv va deinduktiv hulosalar chiqarish boshlang'ich abstrakt fikr yuritish o'quvchining yangi olinayotgan bilimlarni ilgari hosil qilgan tushunchalar sistemasiga bog'lay olishiga yordam beradi. Bu esa bolada tushunish faoliyati o'sayotganini ko'rsatadi.

Tushunish yangi bilim hosil qilish protsessida ilgari hosil qilingan bilimlarni ishga sola bilish olinayotgan yangi bilimlarni ilgari hosil qilingan tushunchalar

bilan bog'lay oishidir.

I.P.Pavlovning talimotiga binoan tushunish ilgari kishi tajribalarida hosil qilingan va mustahlamlangan shartli bog'lanishlarga (assotsiatsiyalarga) tayanadi. Assotsiatsiya deb ataladigan boshlanishlarning hosil bo'lishi. I.P.Pavlovning ko'rsatishicha atshqi odamdagi muayyan munosabatlarni bilish keyinchalik ulardan foydalanish esa tushunish demakdir. Agar bola o'zi olayotgan yangi bilimlarni ilgari hosil qilgan bog'lanishlar sistemasiga kirita olmasa bilimlarga tushunmaydi va ularni quruq yodlab olishga majbur bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarni bilimlar orttib hayot tajribalari ko'payib borgan sari ular miyasidagi bunday bog'lanishlar assotsiatsiyalar sistemasi kengaya boradi va keyin orttiriladigan bilimlarni tushunib olish uchun katta zamin hozirlaydi. Lekin eng muhimi dars protsessida o'quvchilar hosil qilayotgan har bir yangi tushunchani ulardagi mavjud tushunchalar bilan bog'lay olishga erishishdan iboratdir.

Kichik yoshdagi maktab bolalari dastlab tashqi olamdagi munosabatlarni bilishda juda qo'llaydilar. Shuning uchun ular o'zlari o'qib o'rganayotgan tabiat va jamiyat hodisalardagi kichik bog'lanishlarni hali to'g'ri tushunib yetmaydilar. Bunday bog'lanishlarni ular o'z tajribalari asosida tushunadilar. Masalan o'qituvchi I sinfda uy hayvonlari haqida tushuncha berib o'quvchilardan uy hayvonlari jumlasiga yana qanday hayvonlar kirishini so'raganda o'quvchilardan biri "It, mushuk, sichqon" deb javob bergan. O'qituvchining " Nima uchun sichqon uy hayvoniga bo'ladi " degan savoliga u: "Sichqon uyda yashaydi", deb javob bergan. Bu javob shuni ko'rsatadiki kichik yoshdagi o'quvchi narsa yoki hodisalarni bir-biri bilan bog'lashda ularni muhim belgilaridan emas balki tashqi bog'lanishlarni nazarda tutadi.

Huddi shunungdek I sinf o'quvchilari topishmoq jumboqlardagi konkret buyum yoki konkret muhitdan ajratib topishmoqda beriladigan shartlarni abstraktlashtirish yo'li bilan boshqa bir narsaga yoki boshqa bir sharoitga ko'chira olmaydilar. Shuning natijasida ular so'larning ko'chma ma'nosini topishga juda qiynaladilar. Ular III va IV sinflarga chiqqanlaridan keyin so'zlarning ko'shma

ma'nosini abstraklshtirish yo'li bilan tushuna oladigan bo'la oladilar. Boladagi bunday qobiliyat ona tilidan misollar o'qish majoziy so'zlarni bilib olish ko'chma so'zlarni o'rganish natijasida hosil bo'ladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar hodisalar orasidagi sababli bog'lanishlarni tushunishda ham o'zlariga xos xususiyatlarga ega bo'ladilar. Ular yuz bergan voqeyliknin yuz beradigan faktlar nimalar oqibatida sodir bo'lishini tusunib yetmaydilar. Shu sababli keraksiz hatti-harakatlar qilayotganlarida bundan nimalar kelib chiqishni va bu ish nimalarga olib kelishini ular oldindan ko'ra olmaydilar.

Boladagi bunday fikrlash qobiliyati ya'ni natijaga qarab uni keltirib chiqargan sababini ochib beradiga mantiqiy fikrlash qobiliyati asta-sekin o'sib boradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar boshlang'ich ta'lim davrida bir qancha tabiat va jamiyat xodisalari bilan tanishadilar bir hodisa ikkinchi bir hodisa bilan bog'liq ekanligini biladilar chunochi urug'ning ko'karishi tuproqning tarkibiga namgarchilikka yorug'likka va temperaturaga bog'liq ekanligini tushunadilar shuningdek tarixdan mamlakatimiz mehnatkashlarning ilgari qanday yashaganliklari nima sababdan og'ir ahvol da yashaganliklari va ularning qanday qilib bunday og'ir ahvoldan qutilganliklaridan xabardor bo'ladilar xozirgi kunda bizning demokratik jamiyatda yaxshi va halol mehnat qilgan kishilarning qanchalik hurmatga sazovor bo'layotganliklari singari ijtimoiy hayotimizda to'g'risidagi ancha tushunchalarni olib boradilar. Bular esa o'quvchilarda murakkab hodisalar ustida fikr yurita olisha bu hodisalarni sabab va natija bog'lanishlarini tushunish singari yuyksak darajada fikrlash formalarining o'sishiga imkoniyat beradi.

## **II-BOB. IJTIMOIIY PSIXOLOGIYaNING VUJUDGA KELISHI VA SHAKILLANISHIDAGI ASOSIIY OMILLAR.**

### **2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy psixologiyani shakillantirishning iqtisodiy va ma'naviy asoslari.**

O'zbekiston ijtimoiy xayotining barcha sohalaridaga o'zgarishlar, ularning natijadorligi kishilar, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy psixologiyasiga ta'sir etmay qolmaydi. Uning o'zgarish mexanizmini ijtimoiy psixologiya vujudga kelishi hamda shakllanishi xususiyatlarini aniqlagandagina ochib berish mumkin. Muammoni tarixga qaytib ko'rib chiqish yoshlarning yangi siyosiy tafakkuri vujudga kelishi sarchashmalarini, uning milliy tiklanish jarayonlarini intensivlashtirish, ma'naviy bo'shliqni xalqona an'anaviy mazmun bilan to'ldirish jarayonini tushunish imkonini beradi. «Zarur shartsharoitlarni yaratmay turib, - degandi I.A. Karimov, - odamlarni ularning turmush sharoitidagi katta o'zgarishlarga ruhan tayyorlamay turib, bozor munosabatlarini sun'iy ravishda tiqishtirish va tezlashtirish kutilgan natijani berishi u yokda tursin, bozor iqtisodiyotini qurish g'oyasining o'zini ham badnom qilib qo'yishi mumkin».

Ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi bilan bog'liq qaraganda qanday nazariy va metodologik konsepsiya tarixiy amaliyotga suyanadi. Ma'lumki, bizni o'rab turgan voqyelik predmetlari hamda xrdisalari doimiy harakatda, o'zgarishda va rivojlanishdadir. Ijtimoiy munosabatlar tabiat hodisalariga qaraganda ancha tezroq o'zgaradi, chunki bunda o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy ishlab chiqarishni muntazam rivojlantirishga majbur bo'lgan kishilar faoliyati bilan ish ko'riladi.

Ijtimoiy munosabatlar moddiy va mafkuraviy munosabatlardan tarkib topgan. Ijtimoiy munosabatlar kishilarning ongi va xohishirodasiga bog'liq bo'lmagan holda tarkib topsa, mafkuraviy munosabatlar tarkib topmudan oldin «inson tafakkuri mahsuli» sifatida kishilar ongi orqali o'tadi.

Moddiy ijtimoiy munosabatlar birlamchi, mafkuraviy munosabatlar esa ikkilamchidir. Ijtimoiy psixologiya kabi, ijtimoiy ong ham mafkuraviy munosabatlar sohasiga mansub bo'lib, shuning uchun moddiy ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ikkilamchidir.

Ishlab chiqarish usulining muayyan tipiga asoslangan moddiy ijtimoiy munosabatlar muntazam harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'lgani uchun ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya ham, tabiiyki, uzluksiz o'zgarish va rivojlanishda bo'ladi. Bunda quyidagi qonuniyat ko'zga tashlanadi. Umuman ijtimoiy ongning, jumladan, ijtimoiy psixologiyaning rivojlanish xususiyati va yo'nalishi yaxlit holda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish usulidagi o'zgarishlar xarakteri bilan belgilanadi. Shunday qilib, ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiyada yuz berayotgan o'zgarishlar moddiy ne'matlar ishlab chiqarish usulida sodir bo'layotgan o'zgarishlarning ko'zgudagi aksi kabidir.

Biroq bu ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya ishlab chiqarish usulining o'zgarishi va rivojlanishiga passivlik bilan ergashadi, degani emas. Tarixiy tajriba ko'rsatishicha, ular ishlab chiqarish usuliga faol aks ta'sir ko'rsatib, uning rivojlanishini tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi. Ijtimoiy borliq bilan ijtimoiy ong o'rtasidagi bu ikkiyoqlama o'zaro bog'likdik yoshlar ijtimoiy psixologiyasining rivojlanish jarayonida yorqin ko'zga tashlanadi. Yoshlar psixologiyasi shakllanish va rivojlanish jarayonida jamiyat iqtisodiy hayoti xarakteriga bog'liq ravishda tub o'zgarishlarga uchraydi. Moddiy hayotni ishlab chiqarish usuli umuman hayotiy jarayonning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy saviyasini belgilab beradi.

Ishlab chiqarish usuli kishi ijtimoiy ongini, psixologiyasining xarakterini belgilab beruvchi yagona bo'lmasa ham, asosiy omildir. Ijtimoiy ongning shakllanishi va rivojlanishiga moddiy ne'matlar ishlab chiqarish usuli bilan bir qatorda milliy urfodatlar, an'analar, karindoshlik aloqalari hamda shaxs xatti-harakati va ishining eng muhim tartibga soluvchilari bo'lgan boshqa guruxiy manfaatlar ham katta ta'sir ko'rsatadi. «Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishning ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini istaymiz.

Siyosatimizni shunga quramiz va uni to'la tatbiq. etamiz. Odamlarimiz omilkor salohiyatli, oqibatli, halol va ijtimoiy maydonlarda sobit turadigan bo'lsinlar.

Ma'naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi. Milliy kamolot yo'li mana shu», - deb ta'kidlagandi I.A. Karimov. Jamiyatning ma'naviy xayoti, shu jumladan ijtimoiy ong - murakkab hodisa. Ijtimoiy ong va uning mafkuraviy shakllari minglab yillar davomida qaror topgan hamda avloddanavlodga o'tib kelgan. Jamiyat iqtisodiy xayoti o'zgargani sari ular ham o'zgardi, chunki rivojlanishda nisbatan mustaqildirlar. Shu bois har qanday tuzumga rivojlanishdagi umumiy qonuniyatlar hamda xususiyatlar xos bo'lib, bu hol Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati rivojlanishi misolida aniq ko'zga tashlanadi.

Ajdodlarning boy madaniy merosi Markaziy Osiyo xalqlarining qonuniy milliy iftixoridir. Masalan, «xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkur va dunyoqarashi, hayotga, voqyelikka munosabatining ifodasi bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari, «Alpomish», «Shashmaqom» kabi» durdonalari ma'naviyatning bitmastuganmas manbai, yoshlarimiz dunyokarashining asosidir. Feodalizm davridayoq Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy ongining asosiy xususiyatlari bilimga, dunyoviy ma'rifatga intilish; salaflarning madaniy yutuklaridan keng foydalanish; tabiatni bilishga, uning boyliklaridan inson manfaatlari yo'lida foydalanishga intilish; rasonalizm; hur fikrlilikning rivojlanishi; axloqiy qadriyatlarni hamda insoniy fazilatlarni tarannum etishda, tabiatning eng oliy xilqati bo'lmish insonga munosabatda namoyon bo'ladigan gumanizm; og'zaki va yozma so'zga muhabbat; kishi ma'naviy dunyosini shakllantirishga intilishdan iborat bo'lgandi.

Ijtimoiy ongni shakllantirishning o'ta muhim vositalaridan biri ta'lim tizimidir. XIX asr o'rtalarida Markaziy Osiyoda diniy maktab va madrasalarning keng tarmog'i mavjud edi. XIX asr oxirida ularning soni yanada ko'paydi. I. Jabborov ta'kidlaganidek, «arxiv manbalari ma'lumotlariga ko'ra, 1928 yilda O'zbekiston shahar (Xivadan tashqari) va qishloklarida maxsus ma'lumotli mutaxassislar soni 3780 nafar bo'lgani holda, din xizmatchilari 9,5 ming nafarga yaqin edi.

Boshlang'ich, o'rta diniy ma'lumotga ega ruhoniylar 1471 nafar edi. Respublikada ruhoniylar ixtiyorida 35 ming gektar vaqf yer, ko'plab Madrasa, maktab, qorixonalar bo'lib, ularda 2,8 ming kishi ta'lim olardi»<sup>2</sup>.

Chorizmning mustamlakachilik siyosati o'lka xalklarining xurofiy urfodatlari hamda an'analarini saklab qolishni, ularni zulmat va jaholatda tutib turishni maksad qilib qo'ygandi. Biroq bozor munosabatlari rivojlanishi, milliy tadbirkorlar qatlami yuzaga kelishi, aholining ijtimoiy va sinfiy tarkibi o'zgarishi bilan Turkistonda yangi usul maktablari deb nom olgan maktablarni ochish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Yangi maktablar bir qism yoshlarning psixologiyasi o'zgarishida ilg'or rol o'ynadi hamda Turkiston o'lkasida ilmiy bilimlar targ'ibotiga xizmat qildi. O'sib kelayotgan avlod ongiga dunyoviy bilimlar shu maktablar tufayli singib, atrof voqyelikni yaxshiroq tushunib olishda ularga ko'maklashdi.

Podsho hukumati Markaziy Osiyo mintaqasida rus maktablari hamda Rossiyaning markaziy mintaqalaridagi kabi o'rta o'quv yurtlari boshlang'ich va shahar maktablari, erkaklar va ayollar seminariyalari, o'qituvchilar seminariyalari, real bilim yurtlari ochishga majbur bo'ldi. Bu o'quv yurtlarining xususiyati shundan iborat ediki, ularda faqat rus bolalar emas, balki tub aholi: o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar va boshqalarning ham farzandlari ta'lim olishardi.

Rus maktablari musulmon maktablari, madrasalar hamda yangi usul maktablaridan farqli o'laroq, tub aholi farzandlarining rus bolalar bilan muloqoti orqali ularning e'tiborini milliy madaniyatning rivojlanishidan, ona tilini, o'z xalki tarixini, uning taqdiri, an'analarini bilishdan chalg'itishga uringan. Shunga qaramay, bunday maktablar o'lka aholisining, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy yuksalishida muayyan rol o'ynagan.

Dunyoviy ta'lim yoshlar psixologiyasiga, ularning o'zligini anglashi va madaniyati yuksalishiga ijobiy ta'sir ham ko'rsatdi. O'lka mustamlakachi ma'muriyati qo'ygan to'siqlarga qaramay, bu yerda ilmfan sekinasta rivojlandi, ilmiy kadrlar shakllandi, ular yoshlar orasida ilmiy bilimlarni yoyishga

ko'maklashishdi. Bu mahalliy yoshlar qobiliyati namoyon bo'lishiga ko'maklashdi. Turkistonning iqtisodiy va siyosiy hayotidagi o'zgarishlar jamiyatning ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir etmay qolmadi.

O'zbek adabiyotida xalqning ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashi g'oyasi ko'zga tashlana boshladi. Bu g'oya Navoiy, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Munis va boshqalarning eng yaxshi an'alarini rivojlantirishni davom ettirgan xalq og'zaki ijodida ham o'z aksini topdi. Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlar o'z asarlarida ma'rifatchilik g'oyalarini yoklab chiqib, xalq ommasi hayotini ochib berishdi, ularning adolat tantanasiga, ota yurtning yorqin kelajagiga ishonchini kursatindi. Haziniy, Mux'yi singari va boshqa dunyoviy hamda diniy arboblarning mafkurasi, qudratli hamda nufuzli siyosiyhuquqiy fikr oqimining eng ko'zga ko'ringan vakillari ma'rifat va milliy mustaqillik uchun kurashgan Munavvarqori, Behbudiy va boshqalar bo'lgan jadidchilik; Ahmad Donish, Furqat, Ayniy va o'zbek xalqining boshqa ko'plab madaniyat arboblari siymosidagi ilgor ijtimoiy-siyosiy oqim xam aholining ijtimoiy ongiga katta ta'sir ko'rsatgan.

1910 yilga kelib Turkistonda ta'limning jadidchilik yo'nalishidagi 50 maktab, shu jumladan Toshkentda - 20 ta, Qo'qonda - 16 ta maktab bo'lgan. Ularning tuzilmasi va to'liq faoliyati hali yetarlicha o'rganilmagan.

1917 yildan keyin aholi savodsizligini tugatish maqsal qilib ko'yildi. O'lkada savodsizlar soni qisqa muddatda kamaydi, maktab ishini rivojlantirish kuchaydi. Ayni mahalda oliy ta'lim ham rivojlana boshladi.

Shu bilan birga ushbu davrda mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini boshqarishning ma'muriybuyruqbozlik tizimi avj olib bordi. Mamlakatning eng yaxshi kishilari umriga zomin bo'lgan ommaviy qatag'onlar jamiyatning ma'naviy xayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Keyinchalik bu ta'sir yoshlar ijtimoiy psixologiyasi shakllanishida o'z izini qoldirdi.

O'sha paytlarda hukmron bo'lgan fikrlash tarzi milliy madaniyat, milliy urfodatlar, an'analari, marosimlar rivojlanishiga salbiy ta'sir qildi. Bu xol, jumladan, milliy tilni, milliy urfodatlar, an'analarni rivojlantirishga e'tibor susayganida, Markaziy Osiyo xalklari boy ma'naviy merosini lozim darajada

baxolamaslikda, dinga keskin salbiy munosabatda bo'lishda, uning shaxsga ma'naviy ta'sir ko'rsatish va uni kamol toptirishda juda muhim vosita ekanligini tushunmaslikda, «Markaz»ning milliy respublikalar madaniy ehtiyojlariga bepisandlik bilan qarashida, aholiga ijtimoiymadaniy xizmat ko'rsatish sohasini qoldiq mablag'lar hisobidan moliyalashtirish prinsipida ko'zga tashlandi. Bular o'sib kelayotgan avlodning ijtimoiy psixologiyasida salbiy aks etdi.

## **2.2. Бошланғич синф ўқувчиларида ахлоқий тушунчаларни шакллантириш.**

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqli odobli kishilar sifatida kamol toptirish muhim vazifadir. Ma'limki o'quvchilar shaxsini shakllantirish ishlarini namunali yo'lga qo'yish uchun avvalo ularning xarakter xususiyatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash maqsadiga muvofiqdir. Har bir o'quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o'zlashtirganini aniqlamay ular bilan yakkama-yakka munosabatga kirishish mumkin emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ishonuvchan, tashqi ta'sirlarga beriluvchan bo'ladilar. Buyuk allomolarimiz ta'kidlaganidek kishining fe'l-atvorida hammadan ko'proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar mustahkam o'rnatilib kishining ikkinchi tabiatiga aylanib qoladi. Insinning ikkinchi tabiatida ijobiy hissiyotlarni, fazilatlarni tarkib toptirish yuksak axloqiy xislatlarni normalarini shakllantirish uchun butun ma'suliyat boahlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur yosh davrida o'quvchining har bir gapi, har bir harakati, ta'sir ko'rsatish uslubi uning uchun haqiqat mezonini vazifasini bajaradi. Chunki o'quvchilar o'qituvchilariga qattiq ishonadilar; uning fikr mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik nazokaridan zavq oladilar, talablariga hamisha amal qiladilar, ular bergan topshiriqlarni bekamu-ko'st bajarishga harakat qiladilar. Ana shu davrda o'qituvchi uchun: a) o'quvchilarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatish, his-tuyg'ulari va ezgu niyatlarini qo'llab quvvatlash; b) ularning atrofidagi kishilarga yordam berishga undash

to'g'ri mulohaza yurtishga o'rgatish, noma'qul qiliqlardan tiyish, tabiat mulohazalarini kuzatishga va musiqa tinglashga odatlantirish; v) ularga nimalar bilan shug'ullanish kerakligini, burch hissini tushuntirish; g) ular bilan o'qilgan kitoblarni ko'rilgan tomoshalarni muhokama qilishga o'rgatish. O'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o'tkazishi, ularni g'aroyibotlar olamiga deb kirishi faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olish shart.

Ma'lumki o'quvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo'lib bir o'quvchiga muvaffaqiyat bilan qo'llangan ta'sir vositasi boshqasiga qo'llanganda kutilgan natija bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarga yakkama-yakka yondashib amalgam oshirilsa, yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir.

Mana shunday yondashishda o'quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan davrdagi psixologik holatiga mos tarbiyaviy vositalarni tanlash va tarbiya vositalarini topishni talab qiladi. Bunda o'qituvchilarning o'quvchiga g'amxo'rliqi, pedagogik odobi, o'z xatti-harakatining natijasini oldindan ko'ra bilish muhim rol o'ynaydi.

Mazkur vazifalarni amalgam oshirish o'qituvchi o'quvchilarning xususiyatlarini qanchalik o'rganganiga bog'liq. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining psixik dunyosi oqilona yo'l topa olish muvaffaqiyatlarning garovidir.

O'quvchiladagi mujassamlashgan axloqiy tushunchalar saviyasini aniqlash maqsadida ularga sentabr oyining uchinchi haftasida maxsus alohida savollar beriladi. Tajriba uchun 2 ta "yaxshi" va "yomon" axloqiy tushuncha tanlab olinadi. Ular kundalik turmush sharotida krng qo'llaniladigan tushunchalar ekani sababli o'rganish rejalashtiridi. Axloq xuddi shu so'zlaedan boshlanadi, chunki ularning zahirida insonning murakkab axloqiy qiyofasi, xislat, barqarormasligi yotadi.

Tajribada savollar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilimi va turmush tajribalarini hisoga olib tuziladi.

1-sinf o`quvchilariga quyidagi savollar berildi; 1) Nima yaxshiyu-nima yomon? 2) O`zidan kattalarga savol beradigan, ularning aytganlarini bajaradigan bolalar qanday bolalar? 3) “xo`p” degan yaxshimi, “yo`q” drgan yaxshimi? va hakazo.

Biribchi savolaga ko`pchilik o`quvchilar “Quyong yaxshi, bo`ri yomon”, “Echki yaxshi, bo`ri yomon ”deya javob qaytaradilar. Yu. M ning javobi boshqalardan keskin farq qiladi; u mantiqiy izchillik bilan o`z fikrini bildirdi. “Echki9 yaxshi u sut beradi”, “Tulki yomon u odamlarni aldaydi”, Demak u “yaxshi” tushunchasini muhim belgi sifatida odamga foyda keltirishni tanlagan bo`lsa, “yomon” tushunchasini zamirida esa “aldash” alomati yotadi. Aldash salbiy xislat ekanini anglagan, uning salbiy xislatligini payqay olgan va hayvonlarga (hatto odamga) ziyon keltirishini asoslagan. O`quvchining mulohazasidan birinchi savolga javob berishning o`zidayoq sinaluvchilar o`rtasidagi farqlar bo`lganini ko`rish mumkin.

Ikkinchi savolga o`quvchilar “Yaxshi bolalar” deb umumiy javob qaytarganlar. Mazkur savolga deyarli barcha javob bergn bo`lsalarda lekin mulohaza qilishning ko`laminig qamrovi javobning faktlarga boyligi bo`yicha ularning javoblarida tafovutlar ko`zga tashlanadi. Uchinchi savolga ayrim o`quvchilarning “xo`p deyish yaxshi, u yordamlashadi”, “xo`p degan so`z yaxshi “, “yo`q degan yomon, u aldaydi, topshiriqni bajarmaydi” deb javob qaytaradilar.

O`quvchilar ko`pchiligi mazkur savollar bo`yicha munozarada faol qatnashadilar va fikrlarining ravonligi qay darajada krngligi bilan tengdoshlaridan ajralib turadilar. Ayniqsa, miyaning mulohazasi har tomonlama ustunligini ko`rsatadi. Aniqlanishicha qizchaning oilaviy muhitida bunga zarur shart- sharoit yartilgan.

Birinchi sinfdagi o`quvchilar bildirgab fikrlar bilan ular o`zlashtirgan axlaoqiy tushunchalar orasida ayrim tafovutlar borligi aniqlandi.

Ikkinchi sinf o`quvchilaridagi axloqiy tushunchalarni saviyasini aniqlash uchun quyidagi savollar berildi. “ Nima yaxshi-yu nima yomon?”, “Odobli bola deganda qanday bolalarni tushunasiz? ” “odob haqida qanday she`rlar bilasiz? ”

Birinchi savolga ko'p o'quvchilar "kattalarga quloq solish, onasiga yordamlashish, darsini o'z vaqtida tayyorlash yaxshi; Yolg'on gapirish, kattalarni aldash, dars tayyorlamaslik -yomon" "Chumchuqlarni o'tirmaydigan, yolg'on gapirmaydigan, kattalarni

hurmatlash - yaxshi " "Daftar va kitoblarni yirtviush yomon", deya javob qaytaradilar. Javoblar ikkinchi sinf o'quvchilariga nisbatan mantiqli va mazmunli fikrlash, fikrlarni bayon qilish, bo'yicha ustunligini ko'rsatadi. Ularning javoblarida "yaxshi" tushunchasining mohiyati ke ngro'q yoritiladi. Quloq solish, yordamlashish, dars tayyorlash, chumcuqlarni otmaslik, yolg'ob gapirmaslik yaxshiligi aytiladi. Bolalar yomon tushunchasini qiyosiy ta'riflaganlarida; yolg'on gapirish, aldash va hakazolarga e'tabor berildi. Ular o'z fikrlarini bildirishda bir-birlarini takrorlamaydilar. Lekin tushunchalarni to'g'ri anglashlariga qaramay ularning mohiyatini ochishda kavoblar muayyan darajada farqlanadi, ammo tajribalar bir necha bor takrorlangach bu farq kamayishi yaqqol ko'rindi.

Ikkinchi savolga o'quvchi Umida "ukasining sochidan tortmaydi, toza polni iflos qilmaydi", -deb; Muborak esa "Odobli bola ko'chaga ruxsatsiz chiqmaydi, o'z vaqtida choy ichadi, uy ishlariga qarashadi, dars tayyorlaydi" - deb javob qaytaradilar. Birinchi sinaluvchining javobida cheklanganlik borligini ko'ramiz, sochidan tortmaydi, toza polni iflos qilmaydi "keltirilgan ikkita namunani bir-biridan ma'lum darajada farqlanib, u odob haqida keltirganda yanada ortadi.

Tajribada 3-sinf o'quvchilariga quyidagicha savollar berildi. "Nima yaxshiyu,nima yomon ?", "Eng xunuk narsa nima? " "Odob nima?"

Ko'pchilik o'quvchilar birinchi savolga "Odobli bola yaxshi, yomon bola yomon", "Odobli bola kattalarga salom beradi; Ularni hurmat qiladi; Yomon bolalar gap qaytaradi; Keksalar iomon bolalarni yoqtirmaydilar", "Non kelish yaxshi; Aytgsanlarni qilish yaxshi. Pol artmaslik, uy supurmaslik- yomon" kabi javoblarnin qaytaradilar.

Mazkur o'quvchilar "yaxshi" va "yomon" tushunchalarini murakkablashgan shaklda qo'llashga harakat qiladilar va odobli bolaning xarakter xislatini yana boyitadilar. Odobli bola salom berishini va hurmat qilishini aytdilar. "Yomon"

tushunchasini mohiyatini yanada kengaytirib “u gap qaytaradi; uni keksalar yoqtirmaydilar“-dedilar. Umumiy mulohazalardan o`quvchilar o`rtasida ma`lum darajada tafovut bo`ladi deb xulosa chiqarish mumkin.

3-sinf o`quvchilarining ayrimlarigina ikkinchi va uchinchi savollarga javob beradlar. “Bog`da har xil gullarning ochilishi; chiroyli; go`zal. Shu gullarni so`ramasdan uzish, ularni sindirish.” “Tandirda yopilgan issiq non chiroyli” , “Shu nonlarni sindirib yerga tashlash xunuk” va hakazolar.

Yuqoridagi savollar psixologik asosga ega bo`lib ular o`quvchilarni axloqiy tushunchalarini aniqlashga qaratilganligi sababli atrof muhit, ijtimoiy hayot, shaxslar aro munosabat yuzasidan har tomonlama bilimni talab qilar edi. Bunda “yaxshi” va “yomon ” tushunchalari “go`zal” va “xunuk” singari axloqiy tushunchalar bilan uyg`unlashib ketgan. Masalan, sinaluvchilar gullarning ochilishi-daraxtalarning gullashi; issiq nonlar - chiroyli gullarni sindirish, uzib tashlash, nonlarni isrof qilish- xunuk degan xulosa chiqardilar. Aytilgan mulohazalardan ko`rinib turibdiki sinaluvchilar tushunchalarning mohiyatini ochishga ham har xil yondashadilar. Bizning o`quvchilar mazkur tushunchalar yuzasidan bildirgan fikrlar mazmundorligining asosiy sabablari -o`quvchilarning tabiatshunoslik fanidan qiziqishi ongli o`quv motiv, aqliy ishlarning faolligidir.

Uchinchi sinf o`quvchilarining odob to`g`risidagi fikr va mulohazalari mazmuni shakli va tuzilishi bilan 1 va 2 sinf o`quvchilarining fikr mulohazalaridan farqlanadi. Buning sababi ularning turmush tajribasi ko`lami kengroqligi, yosh xususiyatlari va aqliy komolot darajasi yuqoriroqdir. Yosh davr xususiyatiga bog`liq farq bilan narsaga turlicha qarash har xil yondashish, muammo mohiyatini ochib berish uslubi bo`yicha ham farqlar mavjuddir.

1-3 sinf o`quvchilari bilan o`tkazilgan tajribalar ularda axloqiy tushunchalarni tarkib toptirish uchun avvalo har bir tushunchaning muxim alomatini ajratishini; umumlashtirishni; ikkinchi darajali belgilarni topishni o`rgatish zarurligini ko`rsatdi.

## XULOSA

Mustaqil O'zbekistonda bozor munosabatlarining joriy etilishini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yuz berayotgan tarkibiy va funksional o'zgarishlar taqozo etmoqda. Bu o'zgarishlarning asosiy sifat xususiyatlari jamiyat bazasini tubdan qayta qurish, eng avvalo, mulkchilik shakli, ishlab chiqarish va iste'mol, mehnat resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanish shakllarining o'zgarishi, iqtisodiy rayonlashtirish ehtiyojlari va bozor, bozor munosabatlari tomon juda muhim iqtisodiy o'zgarishlarga bog'liq. Bunday sharoitda yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy o'zaro aloqalar hamda o'zaro munosabatlarni o'zgartirishning eng faol bo'g'ini bo'lib qoladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Millatlar va xalqdar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan davlat o'z oldiga quyidagi konkret vazifani qo'ydi: yoshlarni ijtimoiy munosabatlarning xilmaxil shakllariga o'tishga tayyorlash; ularni mafkuralashtirish oqibatlaridan xalos qilish, intellektual salohiyatini banddan ozod qilish, ularga huqukiy kafolatlar berish. Shu bois yoshlarning ijtimoiy rivojlanishi dialektikasini ular mustaqil hayotga qadam qo'ya boshlagach duch keladigan real ziddiyatlarni hisobga olib taxlil qilish eng muxim nazariy metodologik muammolardan biri hisoblanadi.

Yoshlar tushunchasining ilmiy tadqiqi va tahlili ularning barcha xususiyatlarining sababoqibat bog'lanishlarini, tarixiy vaziyatni, jamiyat rivojlanishi bosqichlarini, joriy ijtimoiy o'zgarishlar hamda yangilanishlarni ochib berishi darkor.

Jismonan sog'lom va akdan rivojlangan yoshlarga sog'lom psixika hamda psixologiya negizida ta'lim va tarbiya berish jamiyatning muhim vazifalaridan biri, chunki milliy tiklanish muammosiga yoshlar ma'naviyati, madaniyati, axloqi va salomatligidan alohida qodda qarab bo'lmaydi.

Yoshlar ijtimoiy psixologiyasining mohiyati va o'ziga xosligi shundaki, ularning ongi va psixologiyasi umuman moslashuvchan, beriluvchan, ta'sirchan, ko'plab axborotni o'zlashtirishga qodir bo'ladi. Yoshlikda iqtisodiy va siyosiy

qarashlar, dunyoqarash barqarorlik kasb etadi, o'zligini anglashi rivojlanadi, turmush tarzi va fikrlash tarzi tarkib topadi, xulq-atvor uslubi o'zgaradi. Bu jarayonlar negizida yoshlarning ahvoli bosqichmabosqich o'zgara borib, huquq va majburiyatlari kengayadi. Ayni mahalda yoshlar ijtimoiy psixologiyasining qaror topishi va rivojlanishi nafaqat obyektiv iqqisodiy va ijtimoiy-siyosiy, balki subyektivpsixologik omillar bilan ham taqozo etilgan dialektik jarayondir.

Dunyoqarash bilan bog'liq qoidalar, milliy urfodatlar, an'analar va madaniyat ham yoshlarning ijtimoiy psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsning ijtimoiy yetukligi uning rivojlanish mezonlari, uni ijtimoiy hayotga jalb etish natijasi sifatida voqye bo'ladi. U yosh avlodning tayanch ta'limni tugatishi, kasbxunar egallashi hamda faollik kasb etishi, kasbiy majburiyatlarni va raxbarlik funksiyalarini bajarishi, siyosiy huqukdarga ega bo'lishi va ulardan foydalanishi, qonun oldida to'liqjavob berishi, nikoxdan utishi va farzandli bo'lishi bilan bir vaqtga to'g'ri keladi. Boshqacha aytganda, yoshlar huquq va majburiyatlarining to'la huquqdi subyektiga aylangach, ularni faoliyatning xilmaxil turlarida ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgach, jamiyatda shaxs sifatida ijtimoiy yetuklik kasb etadi.

Yoshlar ijtimoiy psixologiyasini shakllantirish hamda rivojlantirish uzoq davom etadigan dialektik jarayon bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniyma'naviy va boshqa o'zgarishlarga butunlay bog'liq.

Turmush tarzi falsafiysosiologik kategoriya bo'lib, individ, ijtimoiy guruh va hokazolarning xayot faoliyati (mehnati, turmushi, bo'sh vaqti, madaniyati, turmush uslubi va shu kabilarning turmush sharoiti bilan birlikdagi) majmuini kamrab oladi. Yosh avlod tomonidan ajdodlar turmush tarzining, kadriyatlar normalari ijobiy elementlarining meros qilib olinishi hamda o'zlashtirilishi oiladagi, maktabgacha muassasalardagi, umumta'lim maktablaridagi, liseylardagi, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi, mexnat jamoalaridagi muayyan maqsadni ko'zlab olib borilgan g'oyaviytarbiyaviy ishlar jarayonida ijtimoiy munosabatlar butun majmui ta'siri ostida amalga oshiriladi. Hozirgi yoshlarning umumqabul qilingan stondartlarga muvofiq keluvchi turmush tarzini shakllantirish - ijtimoiy turmush va xulq-

atvorning mavjud normalarini shunchaki yodlashdan iborat bo'lmagan boqiy dialektik jarayondir. Ayni mahalda yoshlarning turmush tarzini shakllantirishda yoshlarning o'z hayotiy yo'lini shaxs sifatida faol tanlash, shaxsiy tajriba asosida kadriyat yo'nalishlarini muayyan maqsadni ko'zlab ishlab chiqishning roli katta.

Hozirgi paytda yoshlarning mehnatini, turmushini, dam olishini tashqil qilishda, xilmaxil madaniy va boshqa ehtiyojlarini qondirishda ma'lum yutuqlarga erishilganiga qaramay, ijtimoiy munosabatlarning yangicha tipiga va bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi ilk qadamlar bilan bog'liq bo'lgan, hozirgi sharoitda jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirila borishiga kura, astasekin bartaraf etiladigan kamchiliklar ham mavjud. Yoshlarning ijtimoiy psixologiyasida, ongida, fikrlashida va xulq-atvorida ham shunga muvofiq sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi.

Yoshlar astasekin xo'jalik yuritishning, tadbirkorlikning faol subyektiga aylanib bormoqda, davr talab qilayotgan ishchanlik fazilatlarini, xususiyl mulkchilik va axloq elementlarini kasb etmoqda. Ayni mahadda, boshqa iste'mol buyumlarini ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar bilan muloqot asnosida jahon xo'jalik aloqalarining dialektik birligini, iqtisodiy rivojlanishning umumiy qonuniyatlari astasekin tushunib borilmoqda. Bunda yoshlar davlatning iqtisodiy mustaqilligini mustaxkamlashga imkon qadar hissa qo'shishga harakat kilmoqda. Yoshlarning ro'y berayotgan o'zgarishlardagi iqtisodiy faolligini kuchaytirish ularning bilimiga, kasbiy mahoratiga, fuqarolik pozisiyasiga to'g'ridanto'g'ri bog'liq.

Bu jihatlar jamuljam bo'lgani holda O'zbekistonning hozirgi yoshlari aholining ko'p sonli ijtimoiy guruhi sifatida xalqning milliy tiklanishida, respublikada chinakam mustaqil davlatchilikni qaror toptirishda, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida ulkan ahamiyat kasb etishidan, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik hamda siyosiy muvozanatning muhim omillaridan bo'lib qolishidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda yoshlarda umuman dunyoqarashni shallantirish emas, balki uni milliy manfaatlarni tarixiy ong bilan, tarixiy xotira bilan, milliy ong vositasida

anglash bilan chuqurroq bog'lash zaruriyati kuchayib bormokda. Mustaqil davlatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, g'oyaviymafkuraviy asoslari mustahkamlanib borayotgan hozirgi sharoitda bu ishning ahamiyati kattadir. Har bir fuqaroga barcha masalalarga mamlakat, millat manfaatlari nuktai nazaridan yondashishni o'rgatish kerak. Bu ishlar o'kuv yurtlarida, umuman barcha yoshlar o'rtasida olib borilayotgan ta'limtarbiya ishlari tizimida katta o'rin olishi lozim. Zero, mustaqillik sharoitida tarbiya va ta'lim o'zining milliy jihatlarini yanada kengroq namoyon etmoqda.

Ma'naviyat va axloqiylikni aholining, shu jumladan, yoshlarning ijtimoiy psixologiyasini yanada rivojlantirish hamda kamol toptirish ruxida tiklash davlatimiz siyosatining muxim yo'nalishidir. Xalkdarning ma'naviy merosiga avaylab munosabatda bo'lish, nodir tarixiy yodgorliklarni sakdab qolish hamda ta'mirlash, O'zbekiston xalklari tomonidan yaratilgan, uning milliy boyligi bo'lgan san'at asarlarini izlab topish va mamlakatga qaytarish, qadimgi va hozirgi madaniy qadriyatlarni bilish hamda avaylabasrash, ko'paytirish, milliy madaniyat hamda xalkning o'ziga xosligining ifodachisi bo'lgan o'zbek tilini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasining chinakam mustaqilligi hamda ravnakini ta'minlashga, butun xalqimiz va jamiyatimizning har bir a'zosi farovonligiga karatilgan siyosatning tarkibiy kismalaridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. I.A.Karimov “Barkamol avlod O`zbyekiston taraqqiyotining poydyevori”. Toshkyent 1997 yil.
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi”. Toshkyent 1996 yil
3. I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat ungilmas kuch”. Toshkyent 2008 yil
4. I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbyekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari”. Toshkyent 2009 yil
5. O`zbyekiston Ryespublikasi “Ta'lim to'g'risidagi qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Toshkyent 29.08.1997 yil
6. R.X.Abdurashidov, Laliyev, N.Axrirqulova, M.Rixsiyeva, “Maktab psixologiyasining kundali kitobi”. Jizzax 2005 yil
7. D.Abdullayeva, M.Rasulova, S.Oxunjonova, “Bolalarni maktabga psixologik tayyorlash”. Toshkyent 2003 yil
8. M.Voxidov “Bolalar psixologiyasi” Toshkyent 1982 yil
9. Davletshin M.G., Sh. Do'stmuhammedova., M. Mavlonov., S.To'ychiyeva. “Yosh davrlari va pyedagogik psixologiya”. Toshkyent 2004 yil
10. M.G.Davletshin “Yosh davrlari va pyedagogik psixologiya”. Toshkyent 1976 yil
11. B.A.Kurutrtiskiy “Pyedagogik-psixologiya asoslari”. Toshkyent 1976 yil.
12. Ye.G'oziyyev “Psixologiya” Toshkyent 1994 yil
13. Ye.G'oziyyev “Tafakkur psixologiyasi” Toshkyent 1990 yil
14. M.B.Xolikov, D.Z.Matchonova, N.K.Daminova “Temperament xususiyatlari va uning bolalarda zohir bo'lishi”. Samarqand – 1999 y/
15. Z. T. Nishonova “Eksperimental psixologiya”. Toshkent – 2006y.
16. B.R.Qodirov., K.B.Qodirov “Kasbiy tashxis metodikalari to'plami”. Toshkent – 2003y.
17. Z.T.Nishanova, Sh.T.Tulyaganova O'smirlik davrida qo'quv holatlarining namoyon bo'lishi T-2009 y